

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**A.NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK: 331.5:378 (575.14)

YARMATOV KELDIYOR XUDOYNAZAROVICH

**O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINI
OSHIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING O'RNI**

– «Mehnat iqtisodiyoti»

**Magistr darajasini olish uchun
taqdim etilgan dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
N.U.Arabov

Taqrizchi:

iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
E.S.Fayziev.

SAMARQAND – 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT SIYOSTINING TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	8
1.1. Yoshlarning ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	8
1.2. Aholi ish bilan bandligi bo'yicha nazariy yondashuvlar.....	15
1.3. Yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solishda davlatning roli.....	22
II BOB. O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINING HOLATI.....	31
2.1. Respublikada aholini ish bilan bandligini ta'minlash holati tahlili.....	31
2.2. Yoshlar ish bilan bandligini ta'minlash va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish ko'lamini kengaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli.....	44
2.3. Yoshlarning ish bilan bandligini oshirish mezonlari va ko'rsatkichlar.....	56
III BOB. O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	60
3.1. Yoshlar mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.....	60
3.2. Yoshlar mehnat bozorida oqilona ish bilan bandlikni ta'minlashni takomillashtirish yo'llari.....	71
XULOSA.....	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	87
ILOVALAR.....	94

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida hamda davlat siyosatida yoshlarning ish bilan bandligini oshirish muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu ko'p jihatdan O'zbekiston aholisining tarkibiga ko'ra yoshlar mamlakati qatoriga kirishi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaginidek: "Shu borada biz uchun o'ta muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yana bir masalaga to'xtalib o'tishni joiz deb bilaman. Kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasi barchamizning jiddiy va doimiy e'tiborimiz markazida turishi zarur"¹. Shunga ko'ra, mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirishga imkon bermoqda.

Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi yoshlar eng istiqbolli toifa hisoblanib, uzoq muddatli intellektual investisiya obyekti hisoblanadi. Ular bilim darajasining yuqoriligi, kuchli mehnat motivasiyasi, jo'shqin jismoniy salohiyat, mehnat bozori talab etayotgan kasb va ixtisoslikka tez o'qitish va o'rgatish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda har yili yuz minglab yangi ish o'rinlari tashkil etilayotganligiga qaramasdan mehnat resurslari miqdori muttasil o'sib borayotganligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va boshqa omillar mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi unga talabdan yuqori bo'lishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini tugallayotgan yigit-qizlarni ixtisosliklari bo'yicha ish bilan ta'minlashda jiddiy muammolar mavjuddir. Bu esa yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashda jiddiy muammolarni vujudga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinmagan yoshlar orasida ishsizlar soni salmoqli miqdorga ega bo'lmoqda.

¹ 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar soni.

Bunday holat mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning yangi, samarali usullarini tadqiq etishni talab qilmoqda.

Iqtisodiy modernizasiyalash sharoitida O'zbekistonda ham yoshlar mehnat bozoriga, xususan yoshlar ish bilan bandligini oshirishda davlat siyosati bilan bog'liq yechimini topish lozim bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Ularning asosiylari sifatida yoshlarning ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish, yoshlar ish bilan bandligini ta'minlash va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish ko'lamini kengaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli,

yoshlarning ish bilan bandligini oshirish mezonlari va ko'rsatkichlar, yoshlar mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlari hamda yoshlar mehnat bozorida oqilona ish bilan bandlikni ta'minlashni takomillashtirish yo'llari kabi muammolarni alohida qayd etib o'tish lozim.

Yuqorida zikr etilgan muammolarning mavjudligi, shuningdek mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini oshirishda davlat siyosati, uni tartibga solish va takomillashtirish nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilishning zarurligi magistrlik dissertasiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Mehnat bozori, ishsizlik, inflyasiya, aholini ish bilan ta'minlash muammolarini fundamental tadqiq etishga: Keynes J.M., Lukas R.Ye., Osvald A., Armstrong J., Rozan X., Rudebsh J., Xayek F., Xoll S., Yanosh K. kabi xorijiy yetakchi olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bu tadqiqotlar iqtisodiyotni yangilash sharoitida turgan mamlakatlarda mehnat bozorining umumiy muammolarini o'rganish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlaridan Adamchuk V.V., Volgin N.A., Genkin B.M., Kosnikov V.G., Kotlyar Z.A., Kuzmin S.A., Maslova I.S., Odegov Yu.G., va boshqalar munosib hissa qo'shganlar. Bu muammolar tadqiqotiga o'zbekistonlik olimlardan Abdurahmonov Q.X., Zaynutdinov Sh.N., Zokirova N.Q., Raximova D.N., Raximova N.X.,

Tursunxo'jayev M.L., Ubaydullayeva R.A., Xolmo'minov Sh.R., Xudoyberdiyev Z.Ya., Shoyusupova N. va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Bu ilmiy izlanishlarda mehnat bozorining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning shakllanishi, aholini ish bilan bandligi va uni tartibga solish usullari to'la yoritib berilgan. Lekin, ularda yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solishning bevosita va bilvosita usullari tadqiqot obyekti sifatida batafsil o'rganilmagan. Mazkur muammolarning iqtisodiyotini yangilash sharoitida to'liq o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi, asosiy vazifalarning to'g'ri aniqlashga imkon yaratadi.

Tadqiqot ishining maqsadi – iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida O'zbekistonda yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish yo'nalishlarini aniqlash va takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqot ishining asosiy **vazifalari** etib quyidagilar belgilandi:

- yoshlarning ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyatini yoritish;

- aholi ish bilan bandligi bo'yicha nazariy yondashuvlarni o'rganish;

- yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solishni tadqiq etish;

- yoshlar ish bilan bandligini ta'minlash va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish ko'lamini kengaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini aniqlash;

- respublikada yoshlar ish bilan bandligini ta'minlash holatini tahlil qilish;

- yoshlarning ish bilan bandligini oshirish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash;

- yoshlar mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash;

- yoshlar mehnat bozorida oqilona ish bilan bandlikni ta'minlashni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish

Tadqiqot obyekti – O'zbekiston Respublikasi yoshlar mehnat bozori.

Tadqiqot predmeti – mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini oshirishda davlat siyosatida amalga oshadigan ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar majmuasi.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo'nalishdagi bozor iqtisodiyotiga oid asarlari, aholining ish bilan bandligi, mehnat bozori hamda vatanimiz olimlarining olib borgan ilmiy ishlari xizmat qildi.

Tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari manba sifatida ishlatildi.

Magistrlik dissertasiyasining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati o'rganilgan;
- aholini ish bilan bandligi bo'yicha nazariy yondashuvlar yoritib berilgan;
- yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solishda davlatning roli yoritib berilgan;
- respublikada aholini ish bilan bandligini ta'minlash holati tahlil qilingan;
- yoshlar ish bilan bandligini ta'minlash va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish ko'lamini kengaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli tahlili qilingan;
- yoshlarning ish bilan bandligini oshirish mezonlari va ko'rsatkichlar aniqlangan;
- yoshlar mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritib berilgan;
- yoshlar mehnat bozorida oqilona ish bilan bandlikni ta'minlashni takomillashtirish yo'llari bo'yicha muammolar yechimi yuzasidan aniq xulosa va tavsiyanomalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertasiya ishining ilmiy-amaliy tavsiyalari ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosi sifatida aholini ish bilan bandligini ta'minlashda keyinchalik tadqiq etish uchun nazariy asos sifatida qo'llanilishi mumkin. Dissertasiya aholini ish bilan bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirish muammolarini o'rganish jarayonini to'ldiradi, shuningdek, unda mehnatga layoqatli aholidan foydalanishni yaxshilash vazifalarini hal etishga oid aniq takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu dissertasiyaning ilmiy-amaliy tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarida, shuningdek, iqtisodiyotning samaradorligini oshirish maqsadlarida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalarida, tuman bandlikka ko'maklashish markazlarida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtlarida «Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi», «Mehnat bozori iqtisodiyoti» kabi fanlarni o'qitish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Magistrlik dissertasiyasining tarkibiy tuzilishi. Ishning tarkibi, uning maqsadi va vazifalariga muvofiq: kirish, mavzuning asosiy mazmuni va mohiyatini ifodalovchi sakkizta savollardan iborat uchta bob, hulosasi va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT SIYOSTINING TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Yoshlarning ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish davrida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati faqat odamlarning manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mehnatga yaroqli yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan va o'ziga xos yoshlar tarkibiga ega bo'lgan bizning respublikada ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash uning takror ishlab chiqarishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi jamiyatning kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy jihatdan qo'llab - quvvatlash uchun sarf qiladigan chiqimlar yoshlarni ish bilan ta'minlanishiga bog'liqdir. Ish bilan bandlik inson ijtimoiy kamolatining eng muhim tomonlaridan birini ochib beradiki, bu uning mehnat sohasidagi va mehnat bilan bog'liq bo'lgan etiyojlarini qondirishga aloqadordir.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: "Aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal etishda ham jiddiy sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanmoqda"¹.

Yoshlarni ish bilan bandligi ularning ish joylari qayerdaligidan qat'iy nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishi yuzasidan o'zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardir. Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli odamlarning qanchasi va qay darajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadi.

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston", 2009, 24-bet.

Biroq yoshlarni ish bilan bandlik toifasi faqat iqtisodiy komponenti bilan cheklanmaydi. Ish bilan bandlik, avvalo, ijtimoiy munosabatlardir, ya'ni odamlarning jamiyat ichidagi munosabatlaridir, shu bois qandaydir azaliy, bevosita yuzaga kelgan hodisa sifatidagi ijtimoiylik ularning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Yoshlarni ish bilan bandlik tushunchasini fuqaroning o'z shaxsiy va jamoat ehtiyojini qondiradigan hamda daromad keltiradigan faoliyati deb tushunish mumkin. Ish bilan bandlikni ijtimoiy, iqtisodiy va demografik jarayonlar tizimida mehnat resurslarini yetishtirishning tabiiy asosi sifatida qarash lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarni ish bilan ta'minlash» to'g'risidagi Qonunining 2-moddasida qayd etilganidayek: «Ish bilan ta'minlash – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatdir».¹

Unumli va ijodiy mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlarini tasarruf etish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat, shu jumladan haq to'lanadigan ishni bajarishga aloqasi bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullanish mutlaq huquqiy fuqarolarga tegishlidir².

Majburiy mehnat, ya'ni biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qilish orqali ish bajarishga majburlash taqiqlanadi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Kishilarning ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmasligi ularni javobgarlikka tortishi uchun asos bo'la olmaydi.

Ish bilan bandlikni ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qo'yidagicha ta'riflash mumkin: ish bilan bandlik fuqarolarning qonun hujjatlariga zid qilmaydigan o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir³.

Iqtisodiyotning sifat jihatidan oldingisidan farq qiluvchi har bir rivojlanish bosqichi uchun ish bilan ta'minlashning muayyan modeli (konsepsiyasi) mos

¹ O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuniga sharhlar. – T.: «Sharq», 2004, 19 bet.

² Mamaraimov Q. «Qishloq aholisi ish bilan bandligi» Bozor, pul va kredit 2009, oktyabr, 70-bet.

³ Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (darslik). – T.: «Mehnat», 2009, 274-b.

keladi, chunki uning asosiy xususiyatlari jamiyat faoliyatining muhim jarayonlarini ochib beradi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyat muammolari ichida insonning shaxsini, talab-ehtiyojlarini hisobga olmasdan hal qilishga urinish omadsizlikka mahkum etadi. Shuning uchun avvallari olimlar ish bilan bandlik muammolarini ko'rib chiqayotganlarida asosan, uning iqtisodiy jihatlariga e'tibor bergan bo'lsalar, keyingi paytda ish bilan bandlikning ijtimoiy jihatlariga to'g'risida tobora ko'proq gapirayotganligi bejiz emas.

Yoshlarning ish bilan bandlik konsepsiyasi – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muayyan bosqichidagi ish bilan ta'minlanishning xususiyatini ochib beradigan qarashlar, tasavvurlar tizimidir.

Bunday nazariy tushunchalar markaziga uni rivojlantirishning ijtimoiy bozor tipidagi davlat uchun xos bo'lgan obyektiv jarayonlarini hisobga oluvchi ish bilan ta'minlanishning shakllanishi qo'yiladi. Bu o'z navbatida muayyan davr mobaynidagi qo'yilgan maqsadlarga erishishning real imkoniyatlari bilan cheklanmaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarni ish bilan ta'minlash» to'g'risidagi qonunga muvofiq qo'yidagilar ish bilan ta'minlangan deb hisoblanadi:

- yollanib ishlayotgan, shu jumladan ishni to'liqsiz ish vaqtida haq evaziga bajarayotgan, shuningdek haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;

- betobligi, mehnat ta'tilida, kasbga qayta tayyorlashda, malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarishning to'xtatib qo'yilganligi munosabati bilan, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ish joyi saqlanib turadigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo'lmagan fuqarolar;

- o'zini ish bilan mustaqil ta'minlayotgan fuqarolar, shu jumladan yuridik shaxs tashkil qilmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolar, kooperativlarning a'zolari, fermerlar va ularning ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;

– qurolli Kuchlarda, Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari va qo'shinlarida xizmatni o'tayotgan shuningdek muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar;

– ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan fuqarolar;

– qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat olib borayotgan jamoat birlashmalari va diniy muassasalarda ishlayotgan fuqarolar¹.

Hozirgi vaqtda ish bilan band yoshlarga barcha yollanib ishlayotgan xodimlar, o'quvchilar, xarbiy xizmatchilar bilan bir qatorda o'zini o'zi mustaqil ravishda ish bilan ta'minlaydigan fuqarolar va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan fuqarolar kiritilgan.

Shuningdek, foyda yoki oilaviy daromad olish uchun ish bilan band bo'lganlar toifasiga kiradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq qo'yidagi sabablarga ko'ra vaqtinchalik ish joyida bo'lmagan fuqarolarning ish joyi saqlanib qoladi va ular ish bilan ta'minlangan deb hisoblanadilar:

- davlat va jamoat vazifalarini bajarayotgan vaqtda;
- ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarganda;
- jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilganda.

O'zini ish bilan mustaqil ta'minlaydigan fuqarolar toifasiga qo'yidagilar kiradi:

- tadbirkorlar;
- fermerlar va ularning ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan oila a'zolari;
- dehqon xo'jaligining ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;
- kooperativlarning a'zolari;
- yozuvchilar, rassomlar va boshqalar.

Iqtisodiy jihatdan faol bo'lgan yoshlar uchun, shu jumladan ishsizlar uchun ish bilan ta'minlash maqomini belgilab olish muhimdir. Odatda besh maqom bor.

¹ Абдурахмонов Қ.Х. ва бошқалар. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. Т.: Ўқитувчи, 2004. 82-б.

1. Yollanma xodimlar – bular korxona rahbariyati bilan mehnat faoliyati shartlari to'g'risida tuzilgan yozma kontrakt (shartnoma) yoki og'zaki bitim bo'yicha ishlaydigan shaxslar bo'lib, ular ana shu faoliyat uchun yollanish vaqtida kelishib olingan ish haqini oladilar.

2. Yakka tartib asosida ishlaydiganlar – mustaqil ravishda faoliyat olib boradigan, o'zlariga daromad keltirayotgan ish bilan shug'ullanadigan, faqat qisqa muddatga yollanma xodimlardan foydalanadigan yoki foydalanmaydigan shaxslar.

3. Ish beruvchilar – o'zining hissadorlik jamiyatini, xo'jalik shirkatini va hokazoni boshqaradigan yoki buning uchun davlat tomonidan vakil qilingan shaxslar. Ish beruchi o'z funksiyalarini yollanma boshqaruvchiga to'liq yoki qisman topshirib qo'yish, korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun javobgarlikni o'zida olib qolish mumkin.

4. Oilaviy korxonalarning haq to'lanmaydigan xodimlari – qarindoshga tegishli bo'lgan oilaviy korxonada haq olmasdan ishlaydigan xodimlardir.

5. Ish bilan ta'minlash maqomi bo'yicha tasniflashga to'g'ri kelmaydigan shaxslar – ilgari o'zlariga daromad keltiradigan mehnat faoliyati ta'minlanishning biron – bir maqomiga mos kelmaydigan shaxslar ham kiritiladi.

«Yoshlarni ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonun 1992 yil 13 yanvarda qabul qilingan bo'lib, unga 1998 yil 1 mayda ba'zi o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. qonunda yoshlarning ish bilan bandligining asosiy prinsiplari ifodalab berilgan, bu tamoyillar ish bilan bandlik munosabatlariga bozor xususiyatidan kelib chiqadi va u bir necha tamoyillar bilan ifodalanadi. Birinchi tamoyil fuqarolarning umumiy va ijodiy mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlaridan foydalanishdan iborat favqulodda huquqidir. Mehnat qilishga majbur etishga (qanday shaklda bo'lmasin) yo'l qo'yilmaydi. Faqat qonunda alohida belgilangan hollar bundan mustasnodir¹.

Shunday qilib, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash uchun muayyan qadam qo'yilgan bo'lib, bu

¹ Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (darslik). – T.: “Mehnat”, 2009, 276-b.

qadriyatlar orasida eng muhimi **mehnatning ixtiyoriyligidir**. Endilikda ijtimoiy mehnatda ishtirok etish kerak emasligini tanlashdan iborat ustuvor huquq insonning o'ziga tegishlidir.

Milliy iqtisodiyotda, yoshlarni mehnat bilan ta'minlash endilikda amalda ijtimoiy foydali faoliyatining birdan-bir sohasi hisoblanmaydi. Mehnatning umumiyliги huquqiy burch sifatida mustahkamlangan vaqtda u ana shunday edi. Mehnat sohasi ijtimoiy foydali ish bilan bandlikning o'qish, uy-ro'zg'or ishlari, bolalarni tarbiyalash va hokazolar kabi teng huquqli va hamma uchun qulay sohalaridan biriga aylanmoqda. Ixtiyoriy ish bilan bandlikka barham berish sababi bitta – u ham bo'lsa, tirikchilik vositalarining g'ayriqonuniy manbaidir.

O'zining mehnatga bo'lgan qobiliyatidan foydalanishdan iborat favqulodda huquq tamoyili insonning o'ziga maqul bo'lgan joyda o'zi xohlagan vaqt mobaynida ishlash huquqini nazarda tutadi. Har kim o'zi uchun qulay vaqt va ish bilan bandlik usulini mustaqil tanlashi mumkin. Jinsi, yoshi, millati va boshqa belgilardan qat'i nazar, hammaga doimiy, qisman, vaqtincha, ahyon-ahyonda bo'ladigan ish bilan bandlik, o'rindoshlik bilan ishlash ish vaqtini tashkil etishishning moslashuvchan grafiklariga xosdir. Kasb tanlashdagi huquqning cheklanmaganligi va iqtisodiyot sohalaridan birida mehnat qilish huquqi ham muhim hisoblanadi (bunga yakka tartibda mehnat qilish ham kirishi mumkin).

Favqulodda tanlash huquqi haqida gapirilganda bu huquqni jamiyatda har kimning u yoki bu ish bilan bandlik turi yoki kasbga bo'lgan ehtiyojini qondirish majburiyati bilan tenglashtirish to'g'ri bo'lmaydi. Jamiyat barchaga o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun teng huquqiy shart – sharoitlar yaratib berishi kerak. Masalan, agar biror kishi tadbirkor bo'lmoqchi ekan, jamiyat uning uchun huquqiy shart – sharoitlar berishi lozim, lekin bu kishi tadbirkor bo'lish-bo'lmasligi uning shaxsiy fazilatlariga bog'liqdir.

Bunday ish bilan bandlikning ikkinchi tamoyili – fuqarolarning mehnat huquqini ruyobga chiqarish uchun davlatning shart-sharoitlar yaratib berish kerakligi oydin bo'ladi. Ish bilan bandlik siyosatiga uni qattik tartibga solishdan voz kechish, ijtimoiy sohada mehnat qilishning majburiy emasligi, ijtimoiy foydali

mehnat qilishning har qanday sohasini tanlash erkinligi va ixtiyoriyligi orqali inson manfaatlari va ehtiyojlarini namoyon bo'lishiga yordam berish asos qilib olingan.

Davlatning ish bilan bandlikka ko'maklashish tamoyili asosida mehnat qilish huquqini ro'yobga chiqarish uchun shart – sharoitlar yaratib berishi ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan erkin ishtirokchilari iqtisodiy xulq-atvoriga bevosita usullar bilan tuzatish kiritishdan iboratdir. Bunda davlatning ish bilan bandlikka bevosita ta'sir ko'rsatish choralari rag'batlantiruvchi tadbirlarining ustuvorligiga asoslanadi. Bu o'rinda mehnatkashlarning tadbirkorlar va hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini hamda erkinliklarini buzadigan vositalar bo'lmasligi kerak. Ish bilan bandlikka ta'sir ko'rsatishning o'zini ochib berish asosida uni (bandlikni) istalgan yo'nalishda shakllantirish jarayonini bevosita to'g'ri yo'lga solish yotadi. Ish bilan bandlikka ko'maklashish tamoyili ijtimoiy mehnat munosabatlari subyektlarining taraqqiyot yo'nalishlarini ishlab chiqishda va uni tartibga solishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etishlaridan ham iboratdir. Bu subyektlar yollanma xodimlar, ish beruvchilar bo'lib ular kasaba uyushmalariga, assosiasiyalar va ittifoqlarga birlashganlar.

Bu kuchlarning ish bilan bandlikni rivojlantirishda yaqindan o'zaro yordam berishlari ish bilan bandlikning holatiga faol ta'sir ko'rsatib, uning sifat jihatlarining har tomonlama yaxshilanishiga yordam beradi. Bunday jihatlariga ish bilan band yoshlarning ma'lumot va kasb-malaka tarkibi, uning tarmoq va demografik tuzilishi, yuqori ijtimoiy iqtisodiy harakatchanlik, raqobatdoshlik va shu kabilar kiradi.

Ish bilan bandlik masalalarini ko'rib chiqayotganda mehnat va ish bilan bandlik o'rtasidagi aniq farqni ajrata bilish kerak. Mehnat – insonning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan faoliyati bo'lib, harakatlarni anglatganligi, kuch-quvvat sarflanishi, natijadorlik, ijtimoiy foydalilik va hokazolar shular jumlasiga kiradi. Mehnat vaqt xususiyatiga ega, u bo'linadi va dam olish bilan almashinib turadi. Mehnat – ishchi kuchini ishlab chiqishda ishlatish jaryonidir. Ish bilan bandlik insonning mehnat qilish munosabati bilan va mehnat sohasidagi ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq holda kechadigan ijtimoiy rivojlanishning

muhim tomonlaridan biridir. Mehnatdan farqli ularoq, ish bilan bandlikni odamlarning aniq ish joyidagi amaliy faoliyatiga tenglashtirib bo'lmaydi. Ish bilan bandlik mehnatga layoqatli odamlarning ish bilan qanday ta'minlanganligini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, odamni ish bilan band hisoblash uchun u biron-bir jamoaning a'zosi bo'lishi yoki o'z ishini yaratishi kerak.

1.2. Aholi ish bilan bandligi bo'yicha nazariy yondashuvlar

Hozirgi sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, shu jumladan, ish bilan bandlik siyosatining ham chora-tadbirlarini ishlab chiqishni, ushbu chora-tadbirlarni nazariy anglamay hamda asoslamay turib tasavvur qilib bo'lmaydi. Deyarli barcha ma'lum iqtisodiy nazariyalar u yoki bu darajada mehnat va ish bilan bandlik masalasiga daxldor bo'ladi. Tabiiyki, mehnat bozorining u yoki bu muammolarini yoritish hamda ishlab chiqish darajasi u yoki bu nazariya ishlab chiqilgan tarixiy davrga, muallif maqsadiga, tadqiqotining bosh mavzusiga, uning atrofidagi iqtisodiy voqyelikka ham bog'liq bo'ladi.

XIX asrning oxirlarida klassiklarning izdoshlari ularning qarashlarini rivojlantirib, iqtisodiy nazariyaning neoklassik yo'nalishlarini ifodalab berdilar. Bu yo'nalishlarning asoschisi Kembrij universitetining professori **Alfred Marshall** (1842—1924) bo'ldi. Uning bozor narxi to'g'risidagi, tadbirkorlik, iste'molchilik xulq-atvori va boshqalar to'g'risidagi yangi nazariy qoidalaridan hozirgi vaqtda foydalanib kelinmoqda.

A.Marshall talab va taklif tartibga solish ish bilan bandlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga yega yekanligini ta'kidlagan. Shu bilan birga, u butun talabni pirovard tartibga soluvchi narsa iste'molchilar talabi bo'lib, uni tartibga solish bozor tomonidan o'z-o'zidan amalga oshiriladi, deb hisoblagan.

Artur Pigu (1877-1955) Marshallning izdoshi va shogirdi bo'lgan. Uning ish bilan bandlik sohasidagi asosiy asari - «Ishsizlik nazariyasi» 1933 yilda chiqqan. Bu asarda ish bilan bandlik to'g'risidagi klassik nazariyaning asosiy qoidalari ancha to'liq bayon qilingan yedi. Piguning fikricha, ishsizlikning sababi

ish haqining yuqori darajasidir, ish haqining qisqarishi yesa ish bilan bandlikni oshiradi, chunki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va qo'shimcha ishchilarni yollash uchun imkoniyat yaratiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi, uning fikricha, tovarlar narxining umumiy ravishda pasayishiga va ish haqi hisobiga tirikchilik o'tkazmaydigan aholi guruhlarining xarid qilish qobiliyatini oshirishga olib keladi, bu yesa qo'shimcha talabni vujudga keltiradi, mazkur talab ishlab chiqarish va ish bilan bandlikning kengayishini rag'batlantiradi. Ish bilan bandlik hajmini belgilovchi boshqa omil, Piguning fikricha, mehnatga bo'lgan haqiqiy talab funksiyasidir. Pirovardida u quyidagicha xulosaga keladi: «yollanma xodimlar orasida mutlaqo yekin raqobat mavjud bo'lganda va mutlaqo harakatchan mehnat mavjud bo'lganda, aloqa xususiyati (xodimlar talab qiladigan real ish haqi stavkalari bilan mehnatga bo'lgan talab o'rtasidagi aloqa) juda oddiy bo'ladi. Hamma ish bilan band bo'lishi uchun ish haqi stavkalari bilan talab o'rtasida ana shunday nisbat o'rnatilishiga kuchli intilish doimiy ravishda amal qiladi».

Pigu «ixtiyoriy ishsizlik nazariyasi» tarafdori bo'lgan, unga muvofiq, ishchilarning o'zlari ixtiyoriy ravishda o'zlarini ishsizlikka mahkum yetadilar, talab va taklif natijasida bozorda vujudga keladigan «normal» ish haqi uchun ishlashga rozi bo'lmaydilar.

Keyns nazariyasi ham 70-yillarning oxirlariga kelib, inqirozga uchray boshladi. Bu nazariyaga muvofiq jami xarajatlarning o'sishi ishlab chiqarish hajmining ko'payishini, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va bu bilan ishsizlikning ortib borishi birmuncha pasaytiriladi va narxlarning ortishi sodir bo'lmaydi. Urushdan keyingi yillarda (to 70-yillarga qadar) kapitalistik mamlakatlarning rivojlanishi bu qoidalarni tasdiqladi— ishsizlik va inflyasiya kamdan-kam hollarda birga sodir bo'ldi. Biroq jahon iqtisodiy rivojlanishining borishi 70-yillarda yuqori inflyasiyasiga olib keldi, u rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy hayotining doimiy omiliga aylanib qoldi.

Ingliz professori **A. Fillips** inflyasiya va ishsizlikning bir-biriga bog'liqligini yempirik tarzda (tajribaga asoslanib) tahlil qilar yekan, u inflyasiya sur'atlari bilan

ishsizlik darajasi o'rtasida teskari proporsional o'zaro bog'liqlik borligini aniqlagan. U ana shu bog'liqlikni «oddiy yoki ilk» yegri chiziq shaklida taqdim yetgan. Keyinchalik unga tuzatish kiritilib, uning sharafiga **Fillips yegri chizig'i** deb atalgan.

Monetaristlar. 60-yillarda Fillips yegri chizig'idan siyosatchilar iqtisodiy strategiyani tanlash, ya'ni o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ikki mushkul narsadan yeng kamrog'ini tanlash asosida foydalanib kelganlar.

Biroq, 70-yillardan ye'tiboran ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ishsizlikning ortishi narxlarning oshishi bilan bog'liq ravishda sodir bo'ldi: stagflyasiya muammosi vujudga keldi. Fillips yegri chizig'i ishsizlik va inflyasiyaning o'zaro munosabatidagi real vaziyatni ifodalamay qo'ydi. Ishsizlik va inflyasiyaga qarshi kurash Keynes va uning izdoshlari tasavvur qilganidan ham murakkabroq muammo yekanligi ko'pchilikka ma'lumdir. O'zlarining klassik nuqtai nazarlarida turuvchi turli ilmiy oqimlar keyns-chilikka qarshi chiqdilar. Ular **neokonservatizm** nomini olgan yo'nalishni tashkil yetdilar. Neokonservatorlar orasida yetakchi o'rinni **monetaristlar** yegallaydilar.

«**Ishsizlikning tabiiy me'yori**» to'g'risidagi **gipoteza** to'liq va ish bilan bandlik darajasini aniqlashning monetaristik versiyasidir. Bunda, mehnatga layoqatli aholining to'liq ish bilan bandligining umuman iloji chegaralangan bo'ladi. Hatto kon'yunktura nihoyatda qulay bo'lgan taqdirda ham xodimlarning bir qismi o'z malakalarini qaytadan oshirishiga zaruriyat paydo bo'ladi, chunki ayrim kasblar shunchaki yo'q bo'lib ketishi ham mumkin, bundan tashqari, odamlar u yoki bu sabablarga ko'ra yashash joylarini o'zgartirishga majbur bo'ladilar va hokazo.

Bir qator iqtisodchilarning fikricha, 4—5 % doirasidagi ishsizlikni iqtisodiy jihatdan qoniqarli, tabiiy desa ham bo'ladi va uni ijtimoiy ta'minlash muammoli bo'lmaydi. Ular mazkur sharoitda ish bilan bandlik darajasiga muvofiq keladigan ishsizlik me'yorini tabiiy deb hisoblaydilar. Buning ma'nosi shuki, tabiiy ishsizlik ish kuchiga bo'lgan talab bilan qat'iy belgilanadi.

M. Fridman, har qanday chog'da ham real ish haqi stavkalari tarkibidagi muvozanatga to'g'ri keladigan ishsizlikning qandaydir darajasi mavjud bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Ishsizlikning ushbu darajasida real ish haqi stavkalari muayyan «me'yoriy» sur'atda, ya'ni kapital hosil qilinishi, texnikaviy yangiliklar kiritilishi va boshqa jarayonlar o'zining uzoq vaqtli trayektoriyalarida qolavergan sayin uzluksiz saqlanishi mumkin bo'lgan sur'atda oshish tendensiyasiga yega bo'ladi. Basharti, siyosatchilar ish bilan bandlikni uning mazkur sharoitidagi tabiiy me'yoridan yuqori darajagacha oshirishga urinsalar, narxlarning oshishi bunga birinchi javob bo'ladi.

Ishsizlikning «tabiiy me'yori» to'g'risidagi nazariyasining asosiy zaifligi u mehnat bozorida ham, tovar bozorida ham mukammal raqobat bo'ladi, pulli ish haqi dinamikasi inersial bo'lib, uni sekinlashtirib bo'lmagan taqdirda narxlarning kutilayotgan o'sishi haqiqiy o'sish bilan to'g'ri kelishi (Fridmanning fikricha, bu ish bilan band yemaslik «tabiiy» darajasining belgisi bo'ladi) ishsizlikning bir me'yorida yemas, balki g'oyat xilma-xil me'yorlarida ham ro'y berishi mumkin, ya'ni buning uchun mehnat bozorida muvozanatli vaziyat bo'lishi shart yemas, deb hisoblashadi.

yangi klassiklar ishsizlikning noilojdanligini inkor yetadilar va kambag'allikka qarshi kurash dasturlarini tan olmaydilar. Ularning fikricha, ishsizlik ko'pincha ko'ngilli tusda bo'ladi va ishni «yerkin tanlash» natijasida yuzaga keladi: ishdan bo'shatilgan odamlar kasblarini, yashash joylarini almashtirishni xohlamaydilar va kamaytirilgan mehnat haqiga rozilik bermaydilar. Ba'zida ushbu yo'nalish namoyandalari yeng kam ish haqi darajasini pasaytirish va ishsizlik yuzasidan beriladigan nafaqalarni qisqartirish tarafdori bo'lib chiqadilar, chunki shu yo'l orqali ish bilan bandlik darajasi oshadi, deb hisoblaydilar.

Fridman hukumatning kam haq olib ishlaydigan va ijtimoiy jihatdan zaif himoya qilingan aholi qatlamlariga yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy chora-tadbirlariga qarshi chiqib, uni samarasiz deb hisoblaydi. Iqtisodiyotni tartibga soluvchi asosiy vosita pul deb hisoblaydi. Shuning uchun inglizcha «mone» so'zi pul ma'nosini berganligi uchun, bu yo'nalish ishtirokchilarini monetaristlar nomi

bilan ataganlar. Fridman asarlarining ko'pchilik qismi pul muammosiga, pul muomalasiga, kredit-pul siyosati strategiyasiga bag'ishlangan. Keynsga qarama-qarshi o'laroq, monetaristlar byudjet va soliq tartibiga qarshi chiqadilar va umuman davlat tomonidan tartibga soluvchi narsalar yeng kam miqdorga keltirilishi kerak, deb hisoblaydilar. Ularning asosiy g'oyasi — iqtisodiyotning ahvoli va kon'yunkturaning holatidan qat'i nazar, pulning barqaror yemissiyasidir. Fridman AQS'H monetar tarixini tadqiq qilish asosida pul massasining o'zgarishi bilan milliy daromadning o'zgarishi o'rtasida mustahkam bog'liqlik bor, deb hisoblaydi. Pul taklifining o'zgarishiga ular jami talabning barcha tarkibiy qismlariga (faqat investisiyalarga yemas) ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaraydilar. Fridman pul qoidasining mohiyati, muomaladagi pulning har yilgi ko'payish foizi ichki milliy mahsulotning har yilgi o'sish foizi bilan mos kelishi lozim, bunda narxlarning o'sishi hisobga olinishi kerak.

Monetaristlar yerkin quvvatlar va ish kuchi mavjud bo'lgan pul massasining o'sishi narxlarning o'sishiga olib kelmaydi, deb hisoblaydilar. Buni bizdagi monetaristlar nazariyasi tarafdorlari ham bilib qo'yishlari va hisobga olishlari muhimdir. Konsepsiyaning yana bir muhim qoidasi, qisqa muddatli pul siyosatidan voz kechish va uni uzoq muddatli pul siyosati bilan almashtirishdir, chunki pul massasining o'zgarishi iqtisodiyotga darhol ta'sir ko'rsatmaydi, balki birmuncha vaqtdan keyin ta'sir qiladi.

Monetarizmning ijobiy ta'siri pulning tovarlar olamiga ta'sir ko'rsatish mexanizmini, pul siyosatining iqtisodiyot rivojiga ta'sir ko'rsatishini batafsil tadqiq qilishdan, davlat byudjetini balanslash zarurligini asoslab berishdan iboratdir.

Yuqorida aytilganlardan hozirgi vaqtda iqtisodiy tafakkurning ikki asosiy yo'nalishi: bir tomondan, klassik va neokonservativ (monetaristik) yo'nalish, ikkinchi tomondan, keynschilik va neokeynschilik yo'nalishi mavjuddir. Birinchi yo'nalish yerkin bozorni saqlab qolishni va jami taklifni kengaytirish zarurligini yoqlab chiqsa, ikkinchi yo'nalish jami talabni rivojlantirish va davlatning iqtisodiy rolini, uning tartibga soluvchi vazifasini kuchaytirishni yoqlab chiqadi.

Neoklassik sintez. Keyingi o'ttiz yil mobaynida ko'pgina olimlar bir vaqtning o'zida bozorni tartibga solishdan va uning davlat tomonidan tartibga solinishidan o'zaro bog'liq ravishda foydalanish zarur, degan xulosaga kela boshladilar. S'Hu tariqa **neoklassik sintez** maktabi vujudga keldi. Uning asoschisi va atoqli vakili amerikalik olim, Nobel mukofotining 1970 yilgi laureati **Pol Samuyelsondir**. Uning ikki jildidan iborat «Iqtisodiyot» darsligi (uning keyingi nashri o'zbek tilida 1996 yilda chiqqan) jahondagi ko'pgina mamlakatlarning talabalari uchun uzoq yillardan buyon asosiy iqtisodiyot kitobi bo'lib xizmat qilmoqda. P.Samuyelson unda quyidagicha yozgan yedi: «hozirgi vaqtda g'arbdagi iqtisodchilarning ko'plari biz bu kitobda neoklassik sintez deb atayotgan narsalarga yerishishga intilmoqdalar, ya'ni ular samarali kredit-pul va xazina siyosati yo'li bilan Smit va Marshallning klassik makroiqtisodiyotini daromad darajasini aniqlashning zamonaviy makroiqtisodiyoti bilan birlashtirishga, har ikki yondashuvdagi barcha sog'lom narsalarni birga qo'shib olib borishga urinmoqdalar»¹. Shu yerning o'zida u umumiy ye'tirofga ko'ra iqtisodchilar klassiklarning dalillarini haddan tashqari soddalashtirilgan hamda XIX—XX asrlar hayot faktlariga javob bermaydi, deb hisoblashlarini ta'kidlab o'tgan. Yerkin olamda hukumatlar va markaziy banklar o'zlari xazina siyosati (xarajatlar va soliqlar) va pul-kredit siyosati quroliga yega yekanliklarini, ular yordamida milliy daromad va ish bilan bandlikni belgilab beruvchi omillarga ta'sir yetishlari mumkin yekanligini ko'rsatdilar. Neoklassik sintezning yo'nalishi tadqiqotlar mavzularining kengligi va amaliy xususiyatga yega yekanligi, iqtisodiy o'sishga, ishsizlikni va uni tartibga solish usullarini tahlil qilishga doir muammolarni chuqur o'rganish, umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasining yaratilishi bilan ajralib turadi. Uning tarafdorlari iqtisodiy-matematik aloqalar usullarini ishlab chiqishga katta ye'tibor beradilar, iqtisodi-yotning davlat tomonidan tartibga solinishi bozorni tartibga solishga nisbatan katta ahamiyatga yegadir, deb hisoblaydilar. Neoklassik sintezning boshqa namoyondalaridan, bizda yendilikda mashhur bo'lib ketgan «Yekonomiks» darsligining mualliflari **Kempbell R. Makkonell** va **Stenli**

¹ Самуэльсон П. Экономика 0.2. Ё.: 1992, 343-а.

L. Bryularni alohida ko'rsatib o'tamiz. Ular bu darslikda ham klassik va neokonservativ (asosan, monetaristik) nazariyani hamda Keynes nazariyasini batafsil va aniq bayon qilib berganlar. S'Hu bilan birga bu bayon qilish ko'pincha u yoki bu masalaga oid turli nazariyalarni qiyoslagan holda beriladi. «Yekonomiks» kitobining mualliflari yozishicha, «iqtisodchilarning ko'pchiligi ham keynschilikka, ham monetarizmga xos bo'lgan ishonarlilikni ye'tirof qilishga tayyordir. Har ikki nazariya foydali sxemalardan iborat bo'lib, makroiqtisodiyotni tahlil qilish imkonini beradi». Ularning fikricha, keynschilar va monetaristlarning bahslari barcha yo'nalishlardagi iqtisodchilarni makroiqtisodiy nazariyaning ayrim yeng fundamental jihatlarini qayta tahlil qilishga majbur yetdi va muhim murosamadoraga kelindi. Olimlar va amaliyotchilar xazina hamda kreditpul siyosatini muvofiqlashtirish zarurligini anglab yetdilar. Bundan tashqari, barcha yo'nalishlardagi iqtisodchilar yendilikda jami talabni ham, jami taklifni ham tahlil qilishga ye'tibor bermoqdalar.

Ish bilan bandlikning yangi mikroiqtisodiy nazariyasi mehnat bozorini ichki tomondan bir xil bo'lmagan va nihoyat darajada dinamik tarzda o'zgaruvchan, harakatchan tizim deb hisoblaydigan yangi nazariyani aks yettiradi. Dinamik yondashishni ishlab chiqish, avvalo, Ch. Xolt, Ch. Perri, M. Feldsteynlarning tadqiqotlari bilan bog'liq. Bu mualliflar ishsizlikdan, odatda, oila boquvchisi hisoblanmagan xotin-qizlar va yoshlar ko'proq jabrlanishini ko'rsatib berdilar. Ilmiy iste'molga yangi ko'rsatkich— tugallangan ishsizlikning o'rtacha muddati, ya'ni ishsizlikning boshlanishidan oxirgacha bo'lgan muddati — kiritilgan yedi. Odatda, bu muddat ko'pi bilan bir-bir yarim oyni tashkil yetishi aniqlandi.

Dinamik yondashish tarafdorlari tahlil qilish uchun ishsizlik turlarini mehnat bozoridagi ishchi kuchi oqimlari nuqtai nazaridan tasniflashni qo'lladilar. Bu mualliflar ishsizlikni umuman yemas, balki ishchi kuchining har bir alohida toifasiga nisbatan tushuntirish, mehnat bozoridagi har bir oqimga tegishli bo'lgan o'ziga xos sabablarni va ish bilan band yemaslik manbalarini qidirib topish lozim deb, hisoblar yedilar. Ishsizlik muammosini ular ishchi o'rinlari surunkali ravishda

yetishmasligiga yemas, balki ko'plab odamlarning olingan ish o'rnida uzoq saqlanib qola olmasliklarida deb bilgan yedilar. Bu iqtisodchilar soliqlarni kamaytirish, ishsizlik yuzasidan beriladigan nafaqalar miqdorini qisqartirish, qonunda belgilangan yeng kam ish haqi darajasini bekor qilish yoki pasaytirish, mehnat bozoridagi axborot tizimini takomillashtirishni jamiyatning iqtisodiyotga ta'sir yetishi chora-tadbirlari sifatida taklif yetdilar.

Muvozanat modellari, tozalanmaydigan bozorlar paradigmasi **ish bilan bandlik yangi makroiqtisodiy nazariyasiga** kiradi. Ushbu konsepsiyalar ishsizlikka uzoq davom yetadigan o'zgarmas muvozanasizlik fenomeni deb qarashni aks yettiradi. Bu konsepsiyalarda ishsizlik ayrim xo'jalik bozorlarining umumiy muvofiqlashtirilmaganligi bilan izohlanadi. Keyns nazariyasidagidek, faqat mehnat bozoridagina yemas, balki, shuningdek, tovar bozoriga yoyilgan narxlar qat'iyligi va o'zgarmasligi muvozanasizlik modellarining umumiy shart-sharoiti bo'ladi.

1.3. Yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solishda davlatning roli

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 aprel 2007 yildagi 616-sonli qaroriga asosan, mehnat bozorining samarali ishlashi va tartibga solinishi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining eng muhim vazifalari deb hisoblangan va unga ko'ra ushbu vazirlikning zimmasiga quyidagilar yuklatilgan:

- mintaqalar bo'yicha mehnat bozorini shakllantirishda samarali siyosatni amalga oshirish, demografik omillarni, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va tarkibiy qayta tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda bandlikning yangi shakllarini keng tatbiq etish hisobiga aholi bandligining o'sishini ta'minlash;

- demografik o'zgarishlar va kadrlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq o'zgarib borayotgan talablarni hisobga olgan holda mehnat, ish bilan bandlik va

aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish va yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

- ishga joylashishga muhtoj, ish bilan band bo'lmagan aholiga kasbiy qayta tayyorlash va ishga joylashtirish bo'yicha sifatli xizmatlar ko'rsatish;

- aholining ehtiyojmand toifalarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlash, kamxarj oilalar, nogironlar va yolg'iz keksalarga yordam ko'rsatishda tabaqalashtirilgan tarzda va aniq yondashuvni kuchaytirish;

- mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan qattiq nazoratni amalga oshirish, mehnat munosabatlarini moddiy rag'batlantirish va mehnatni muhofaza qilish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Yoshlar mehnat bozori faol siyosat olib borishning eng samarali yo'nalishlaridan biri mehnat bozorining eng muhim instituti bo'lgan ish bilan bandlikning ixtisoslashgan umummilliy xizmatidir. Uning asosiy vazifasi mehnat bozori haqidagi axborotning tarqalishi hisobiga uning samaradorligini oshirishdan iboratdir. U, birinchidan, ishsizlarning bo'sh ish o'rinlari qidirishlariga, tadbirkorlarning xodimlar qidirishlariga sarf etiladigan vaqtni qisqartirishni ta'minlaydi, ikkinchidan, ish beruvchilarning o'z talablariga eng ko'p darajada mos keladigan xodimlar yollashiga yordam beradi, xodimlarga esa mehnat sharoitlari va ish haqi darajasi muvofiq keladigan ish joyini topishlariga imkon beradi.

Bundan tashqari, ish bilan bandlik xizmati vazifalariga quyidagilar kiradi: ish qidiruvchilarga kasblar bo'yicha maslahatlar berish va ishsizlarni yangi mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish; nogironlar, yoshlar, harbiy xizmatdan bo'shab kelgan yoshlar va fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoya qilinishga muhtoj bo'lgan boshqa guruhlar uchun ish joylarini band qilib qo'yish; ish kuchuni hududlar bo'yicha qayta taqsimlash; oddiy yo'l bilan ishga kira olmaydigan fuqarolarning (ko'p bolali va yolg'iz ota-onalarning) ish bilan bandligiga qo'maklashish uchun ish o'rinlarini qo'llab-quvvatlash; ishsizlarning tadbirkorlik

va mustaqil faoliyati bilan shug'ullanishlariga yordam ko'rsatish; ommaviy ishdan bo'shatishlarni to'xtatib qolish uchun kompensasiya to'lovlarini amalga oshirish.

Respublikamizda davlat ish bilan bandlik xizmati 1991 yilda tashkil etilgan edi. Ish bilan bandlik xizmati ishining asosiy tamoyillarixalqaro tajribaga mos keladi. Masalan, aholining ish bilan bandligi to'g'risidagi qonunga ko'ra davlat fuqarolariga o'zlari uchun mos keladigan ish tanlashda va ishga joylashda bepul yordam ko'rsatadi, ishsizlarga bepul ta'lim olish imkoniyati yaratib beriladi, yangi kasbga o'qiyotgan vaqtda stipendiya to'lanadi, haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoni beriladi, ishsiz fuqarolar daromadlarini qo'llab-quvvatlash siyosati amalga oshiriladi. Ish bilan bandlik xizmati murojaat qilgan mehnatkashlarga va ish beruvchilarga ishga ega bo'lish imkoniyati haqida va ish kuchi bilan ta'minlash to'g'risida, biror kasb egallashni istaydigan fuqarolarga qo'yiladigan talablar haqida axborotlar beriladi; fuqarolarning o'zlariga mos keladigan ish topishlarida, ish beruvchilarga esa zarur xodimlar tanlashda ko'maklashadi. Ish bilan xizmati ish beruvchilarga yoshlar, nogironlar, yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun ish o'rinlari saqlash va yaratish dasturlarini qo'llab-quvvatlashni kafolatlaydi. Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi ishga joylashtirish byurolari kabi respublika ish bilan bandlik xizmati organlari ish o'rinlarini taklif qilish va ish kuchiga bo'lgan talab va taklif to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni, axborot materiallarini e'lon qilib borishni ta'minlaydilar.

Shuning uchun dunyodagi barcha mamlakatlarda ishsizlar va ishsiz qolish xavfi ostida turgan xodimlarning kasb tayyorgarligi va ularni qayta tayyorlashdan iborat turli-tuman dasturlarni ishlab chiqish tajriba qilib ko'rilyotir. Bunda mazkur dasturlar birinchi navbatda oldingi kasb malakasi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga, ishchi o'rinlarining yangi kasbiy tuzilishiga javob bermaydigan kishilarga, shuningdek, aholining zaif himoyalangan qismiga (hozircha zarur kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan yoshlarga, mehnat bozoriga qaytishga qaror qilagn ayollarga; kasbga yo'naltirishga ehtiyoj sezadigan nogironlar va boshqalarga) qaratilgan. Ko'pincha ta'lim olish uchun nomzodlarni davlat ish bilan bandlik xizmati aniqlaydi.

Kasb tayyorgarligi va qayta tayyorlov dasturlari davlat, tadbirkorlar va kasaba uyushmalarining ishtirokida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bu dasturlarning bevosita tashkilotchisi ko'pincha davlat ish bilan bandlik xizmati hisoblanadi, u markazlar va o'quv kurslarining maxsus tashkil etilgan shahobchalarda, shuningdek, o'quv yurtlari yoki korxonalar bilan tuzilgan shartnomalar asosida tashkil etadi; ta'lim oluvchilarga stipendiyalar to'lanadi.

Ish bilan bandlik xizmati davlat manfaatlarini ko'zlab ish olib boradi, ishsizlarning ta'lim olishi va qayta o'qishini ularga mablag'lar ajratish shaklida nafaqalar to'lash orqali rag'batlantiradi.

Aholining ish bilan bandligi to'g'risidagi qonunda ishsiz fuqarolar ham ish bilan bandlik xizmati yo'llanmasi bilan bepul kasb tanlash, kasb tayyorgarligi, qayta tayyorlash va malaka oshirish huquqiga egadirlar, deb ta'kidlangan. Mazkur huquqlar qonunning boshqa moddalari va bandlarida ham kafolatlangan.

Mehnat bozoridagi ana shu yo'nalishini amalga oshirishdagi asosiy murakkablik iqtisodiyotning bo'lajak kasb-malaka tuzilishi to'g'risida, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda kasb sohasidagi mehnatga bo'lgan ehtiyoj qanday bo'lishi haqidagi axborotning yetishmasligidadir. Yana bir muammo ishdan mahrum bo'lgan shaxslarning kasbiy jihatdan qayta tayyorlanishga kam talab bildirishidir, chunki ular oldingi kasblari bo'yicha ishga joylashishga umid qiladilar. Mehnat bozoridagi faol siyosatning mazkur yo'nalishini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omil ish bilan bandlik xizmati faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlashning cheklanganligi hamdir.

Mustaqil ish bilan bandlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimi. Hozirgi vaqtda mehnat bozoridagi faol siyosatni amalga oshirish sohasidagi faoliyat doirasida mustaqil ish bilan bandlikni rivojlantirish, tadbirkorlik malakalarini o'rgatish va kichik biznesni tashkil etishga ko'maklashish dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat bozoridagi siyosatning bu yo'nalishi eng muhim ijtimoiy vazifani – yangicha mehnat dunyoqarashini shakllantirishdir.

Ishsizlar agar o'zlarining mustaqil ishlarini tashkil etishni hohlasalar, ish bilan bandlik xizmatiga zarur asoslash bilan (bizne-reja bilan) loyihalar tanlovida ishtirok etish haqida ariza beradilar, bu yerda uning rejasini mutaxassislar ko'rib

chiqib, o'z xulosalarini beradilar. Agar iltimos qondiriladigan bo'lsa, u holda yangi tadbirkor uchun boshlang'ich kapital sifatida unga muayyan muddatga beriladigan ishsizlik nafaqasining butun summasi xizmat qiladi va bir yo'la to'lanadi.

Ishsizlikni kamaytirishning chora-tadbirlari sifatida quyidagilarni qayd etib o'tish mumkin:

- korxonada yangi ishchi o'rinlari tashkil etish yo'li bilan aholini ishga jalb qilish;
- jamoat xizmatini tashkil etish;
- xususiy tadbirkorlikni hamda aholining o'z-o'zini ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish;
- kamyob mutaxassisliklar va kasblar bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish;
- ish bilan bandlikning turli shakllarini qo'llash;
- aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatlari xususida keng miqyosda xabardor etib turish.

Ish bilan bandlik xizmatining yana bir vazifasi mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullanishni istaydiganlarni o'qitishdir. Bu kishilar ishga doir asosiy ko'nikmalarni (narx belgilash asoslari, muhosiblik hisobi, rejalashtirish va hokazolar) o'qish jarayonida egallab chiqadilar. Ish bilan bandlik xizmatining vazifasi tadbirkorga mustaqil ish bilan bandlik nimalarni bildirishini (masalan, ijtimoiy ne'matlarning birmuncha qisqarishi, ish vaqtining davomiyligi birmuncha ortishi, yuqori darajadagi tavakkalchilik, xonavayron bo'lish ehtimoli borligi, qonunlarning hali to'la mukammal emasligi va hokazolarni) tushuntirishdir.

Yangi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yana quyidagilarni o'z ichiga oladi: maslahat xizmatlarini ko'rsatish, imtiyozli qarz berish, ishlab chiqarish binolari, xom ashyo bilan ta'minlash, xom ashyo yetkazib beruvchilar bilan aloqa o'rnatish va tayyor mahsulotni sotish.

Hozirgi vaqtda mustaqil shug'ullanish va tadbirkorlik tashabbusi asosida kichik ishlab chiqarish korxonalarining shakllanishi keng istiqbolga egadir. Hozir ish bilan bandlarning qariyb 15% i mulkchilikning barcha shakllaridagi kichik

korxonalarda mehnat qilmoqda. Shunday hodisalar, chunonchi, xususiylashtirish, raqobatning kuchayishi munosabati bilan korxonalar hajmining qisqarishi, ommaviy ishlab chiqarishdan moslashuvchan ixtisoslashuvga o'tilishi, shuningdek, tarkibiy qayta qurish jarayoni, mutaxassislarning fikricha, o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan boshqa mamlakatlardagikabi yirik firmalardagi yangi ish o'rinlari kichik korxonalarga nisbatan kamroq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunning 15, 23 moddalariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish Respublika jamg'armasini tashkil qilish haqida"gi 1992 yil 31 dekabrda 606-son qaroriga, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 606-son qaroriga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi 1993 yil 8-iyundagi 277-qaroriga, "Aholini ish bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish Tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi 1993 yil 24-iyun 310-qaroriga ko'ra mehnat bo'yicha muassasalariga aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi hisobidan qo'shimcha ish joylarini bunyod qilish huquqi berilgan.

Ishchi kuchlaridan foydalanish va aholi bandligi bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari vaqtincha moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan korxonalarga, turli mulkchilik ko'rinishdagi yangi korxonalarni yaratishga kreditlar berish yo'li bilan sarflanadi.

Bunday mablag'lar to'lov, ta'minlanganlik va qaytarib berish sharti bilan qisqa muddatga (uzog'i bilan 1 yilgacha) va ustav jamg'armasi badali sifatida tag'dim qilinadi.

Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasidan beriladigan kreditlarning hisob stavkasi (prosent, foizi) O'zbekiston Respublikasi Mehnat Vazirligi tomonidan pul-kredit munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy hujjatlar asosida belgilanadi.

Qo'shimcha ish joylari yaratish uchun aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasidan mablag'lar ajratish O'zbekiston Respublikasi

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimlari tasdiqlagan "Bandlik" dasturlariga ko'ra amalga oshiriladi¹.

Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirishda foydalaniladi:

Aholining raqobatga chidamsiz qatlamlari (umumta'lim maktablarini bitiruvchilar, ko'p bolali va yolg'iz ayollar, pensiya arafasidagilar, xarbiy xizmatdan qaytganlar) va ishsizlar uchun, shu toifadagi shaxslar 50%dan ko'pni tashkil qiladigan joylarda ish joylari bunyod qilish maqsadida moliyaviy mablag'larni ajratish.

Hokimiyatlarning maxsus komissiyalari xulosasiga ko'ra korxonalarga xodimlarning yoppasiga ishdan bo'shatilishning olidini olish maqsadida va mavjud ish joylarini saqlab qolish uchun moliyaviy yordam berish.

Kamida 80% gacha qurilish ishlari bajarilgan, lekin tugallanmagan va shu darajaga kelganda qurilish to'xtatilgan obyektlarda, shuningdek foydalanilmayotgan va bo'shatilgan ishlab chiqarish maydonlarida ish joylarini bunyod etishda qatnashish.

Korxonalar, jamoa va davlat xo'jaliklari bilan birgalikda qishloq mahsulotlarini va halq iste'mol mollarini ishlab chiqarish bo'yicha yangi ish joylarini yaratish.

Istisno hollarda, alohida tog'li, dasht va sanoati rivojlanmagan hududlarda aholini ish bilan ta'minlash uchun bandlikka ko'maklashuvchi markazlarqoshida ishga tushirish muddati 6 oydan oshmagan kichik korxonalar ochish mumkin.

Ustivor rivojlanish hududlari aholisini qabul qilingan dasturlarga mos ravishda bandligini ta'minlash uchun tadbirlar majmuasini ishlab chiqish.

Ish bilan bandlik xizmati mehnat bozorida amalga oshiradigan faol siyosatning navbatdagi yo'nalishi ishsizlarga vaqtincha va jamoat ishlarining dasturlarini rivojlantirish orqali mehnat bozoriga qaytishda yordam ko'rsatishdir.

¹ Abdurahmonov Q.X., Mamarasulov F.U. Aholi ish bilan bandligi infrastrukturasini. T.: 2000. 66-67b.

Bunday dasturlar birinchi marta AQShda 30-yillarda paydo bo'lgan edi. O'sha yillarda jamoat ishlari umummilliy xususiyatga ega edi va o'ziga yuqori malakani talab qilmaydigan ishlarni qamrab olardi. Xalqaro tajribaning ko'rsatishicha, hozirgi vaqtda mazkur dasturlar ba'zan butun mamlakatni, ko'pincha esa aholining ayrim toifalarini, hududlarni yoki davrlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Mazkur dasturlar ishsizlarga maxsus kasb tayyorgarligisiz hamma uchun qulay faoliyat turlarini taqdim etadi. Bu dasturlarni amalga oshirish tajribasini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ular quyidagi ish turlarini bajarishga qaratilgan: yo'l qurilishi va uni ta'mirlash, ko'priklar barpo etish va ta'mirlash (AQSh va Yaponiyada): yerlarni o'zlashtirish – daraxtlar o'tqazish, irrigasiya, kanallar, portlar, aerodromlar qurilishi va ularga xizmat ko'rsatish; ekologik tadbirlar (Avstraliya tajribasi). Munisipial ma'murlar haq to'lanadigan ijtimoiy jamoatlar ishlari – bular qariyalarga, nogironlarga qarash xizmatlari va hokazolar (Kanada, Avstraliya va boshqa mamlakatlarning tajribasi) ham mavjuddir.

Ko'pincha jamoat ishlari to'liq bo'lmagan ish kuni mobaynida davom qiladi, bundan maqsad vaqtning bir qismini kasb tayyorgarligiga yoki doimiy ish qidirishga bag'ishlashdir. Mazkur dasturlarning qatnashchilari odatda eng kam ish haqi oladilar.

Vaqtincha ishlarning tashkil etilishi bir qator prinsiplarga asoslangan. Vaqtincha ishlar bandlik xizmati tomonidan bevosita yoki boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish orqali amalga oshiriladi:

1. Bu ishlar aynan vaqtincha bo'lishi va ular odatdagi ish o'rinlari bilan raqobatga kirishmasligi kerak. Buning ma'nosi shuki, bunday ishlar jamoat ishlarining maxsus dasturlarisiz amalga oshirilmasligi lozim;

2. Bunday ishlarning qatnashchilari faqat cheklangan vaqt mobaynida shug'ullanishlari mumkin, masalan, 1 yilgacha, keyin normal ishga joylashish imkoniyati paydo bo'lishi bilan darhol bu dasturlarni yangilashlari mumkin.

Vaqtincha yoki jamoat ishlari dasturlarining samaradorligi, birinchidan, qo'shimcha ish o'rinlari yaratishda namoyon bo'ladi (mutaxassislarning bergan bahosiga qaraganda, jamoat ishlari sohasida har 100ta ish o'rni boshqa sektorlarda

40 ta doimiy ish o'rinlari paydo bo'lishiga olib keladi). Ikkinchidan, ishsizlarni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni ta'minlashda namoyon bo'ladi (hammaga ma'lumki, ish bilan bandlarning ruhiy holati ishsizlarning holatidan ancha yaxshiroqdir).

Bugungi kunda O'zbekistonda ishchi kuchini sotishga to'g'anoq bo'ladigan ma'muriy, huquqiy va iqtisodiy cheklovlar olib tashlangan. Ya'ni propiska tizimi bekor qilingan, davlat mulki monopoliyasi yo'q, aholini ish bilan ta'minlashning davlat mexanizmi taraqqiy etmoqda.


Hozirgi paytda bozor munosabatlari talabiga mos ravishda mehnat sifati o'sayotganligi an'anasi ko'zga chalinmoqda. Tashabbuskor, layoqatli mehnatkashlar guruhlar, o'z navbatida, mehnat sharoitiga o'z talablarini qo'ymoqdalar. Albatta, bu jarayon ko'ngildagidek kechayapti, deb bo'lmaydi. Bunga avvalo bizning bugungi iqtisodimizning o'tish davrida ekanligi o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ikkinchidan esa iqtisodiy islohotlar o'z yo'lida ma'lum qiyinchiliklarga ham uchramoqda. Shu boisdan ham aholini ish bilan band qilish muammosini ko'p yillardan buyon bozor iqtisodi sharoitida yashayotgan ayrim davlatlar tajribasini ko'chirib olgan holda amaliyotga tatbiq etib emas, o'zimizdagi mavjud voqeyelikni chuqur tahlil qilgan va yetarli saboqlar chiqargan holda yechish joiz.

Umuman olganda, yoshlarni ish bilan to'la ta'min qilish yagona va asosiy vazifa bo'lib qolmasligi kerak. Masalaning mohiyati shundan iboratki, aholini ish bilan ta'minlash va ish bilan band bo'lmagan aholining ijtimoiy muhofazasini oshirish ishlab chiqarish samaradorligi va sifati oshishiga, insonning to'laqonli hayot kechirishiga xizmat qilmog'i lozim.

II BOB. O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINI HOLATI

2.1. Respublikada aholini ish bilan bandligini ta'minlash holati tahlili

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida davlat ish bilan bandlik siyosati viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tarkibiy qismi sifatida mehnat potensialidan samarali foydalanish va uning rivojlanishi bo'yicha ish bilan bandlik muammolarini yechishga yo'naltirilishi zarur. Iqtisodiyotni yangilash sharoitida aholini ish bilan bandligi va ishsizligi bir-biriga tez almashinishi mumkin. Viloyatda aholini ish bilan ta'minlash va ishsizlikni bartaraf etishda mehnat bozorining ahamiyati kattadir. Chunki viloyatda ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi aynan mehnat bozorida o'zaro to'qnashadi. Shu bois, bu infratuzilmani samarali rivojlantirish viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi (2.1-rasm).



2.1-rasm. Mehnat bozorida aholini ish bilan bandligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri.

Aholi bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashni yanadayaxshilash va uning

farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslari soni dinamikasi
(ming kishi hisobida)

Hududlar	Yillar					2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarish	
	2007	2008	2009	2010	2011	+, -	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	883,5	904,4	931,4	938,0	970,2	86,7	109,8
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1391,8	1433,5	1497,6	1536,0	1626,4	234,6	116,8
Buxoro	904,5	928,7	949,2	967,4	1013,4	108,9	112,0
Jizzax	582,3	601,1	622,2	636,1	675,2	92,9	115,9
Qashqadaryo	1345,4	1395,8	1438,3	1481,7	1568,9	223,5	116,6
Navoiy	501,6	509,8	527,3	532,1	537,1	35,5	107,0
Namangan	1207,0	1246,5	1288,2	1328,5	1432,8	225,8	118,7
Samarqand	1617,0	1672,2	1725,8	1782,1	1900,2	283,2	117,5
Sirdaryo	390,3	401,9	407,8	415,5	430,9	40,6	110,4
Surxondaryo	1057,7	1096,5	1133,5	1172,9	1246,5	188,8	117,8
Toshkent	1447,4	1477,9	1499,3	1518,2	1564,6	117,2	108,0
Farg'ona	1617,5	1667,2	1720,1	1769,3	1897,1	279,6	117,2
Xorazm	823,3	847,7	874,1	892,8	922,4	99,1	112,0
Toshkent sh.	1446,9	1461,5	1508,8	1533,6	1524,2	77,3	105,3
Respublika bo'yicha	15219,6	15644,9	16123,6	16504,2	17309,8	2090,2	113,7

Manba: Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatdosh kasb-hunarlariga o'rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiya masalalariga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ham ko'zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda, aholini ish bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag'larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.¹

Demografik jarayonlarga bog'liq holda, yurtimizda mehnat resurslari soni yil sayin ortib bormoqda (2.1-jadval).

2.1-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2007-2011 yillar davomida mehnat resurslari soni 2090,2 ming kishiga yoki 13,7 foizga ortgan. Bu davrda mehnat resurslari sonining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,6 foizni tashkil qilgan. Ko'rilayotgan davrda mehnat resurslari sonining o'sish sur'ati respublika hududlarida bir me'yorda kechmagan. Jumladan, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha hududlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri) esa past bo'lgan. 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, mehnat resurslari jami aholining 59 foizini tashkil qilib, uning asosiy qismi (qariyb 60 foizi) Samarqand, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida to'plangan.

Yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikasiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va shuningdek, 12 yillik majburiy ta'lim tizimiga o'tish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi (2.2-jadval).

2007-2010 yillar mobaynida ish bilan band bo'lgan aholi soni 10735,4 ming kishidan 11919,1 ming kishiga yoki 11,0 foizga ortgan. Tahlil qilinayotgan davrda ish bilan band bo'lgan aholi soni respublikaning barcha hududlarida ham ortgan. Ammo, tahlillar uning o'sish sur'ati bir me'yorda kechmaganini ko'rsatadi. Xususan, o'tgan besh yil davomida ish bilan band bo'lgan aholi sonining o'sish

¹Зокирова Н., Абдурахмонов О. Инкироз: оқибатлар, бартараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. – Т.: Fan va texnologiya, 2009. – 136-138-бетлар

sur'ati Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha hududlarda esa past bo'lgan.

2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi soni dinamikasi (ming kishi hisobida)

Hududlar	Y i l l a r					2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2007	2008	2009	2010	2011	+;-	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	551,1	561,1	566,1	580,8	590,0	38,9	107,0
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1014,8	1047,3	1063,0	1112,1	1144,8	130,0	112,8
Buxoro	708,0	729,1	748,5	768,1	784,7	76,7	110,8
Jizzax	350,9	360,6	396,6	381,6	392,4	41,5	111,8
Qashqadaryo	877,9	908,7	934,9	971,7	1003,8	125,9	114,3
Navoiy	389,9	396,7	404,6	408,0	413,4	23,5	106,0
Namangan	738,0	763,3	790,1	815,3	841,7	103,7	114,0
Samarqand	1115,8	1152,0	1186,7	1229,9	1269,8	154,0	113,8
Sirdaryo	296,1	304,1	318,9	320,0	327,5	31,4	110,6
Surxondaryo	696,7	722,5	744,6	784,5	817,8	121,1	117,3
Toshkent	1068,6	1097,5	1127,0	1155,4	1183,5	114,9	110,7
Farg'ona	1241,3	1280,1	1318,0	1340,5	1367,6	126,3	110,2
Xorazm	553,6	571,1	583,0	606,7	625,2	72,6	112,9
Toshkent sh.	1132,4	1140,8	1145,8	1153,8	1156,7	24,3	102,1
Respublika bo'yicha	10735,4	11035,4	11328,1	11628,4	11919,1	1183,7	111,0

Manba: Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Aholi bandligini ta'minlash va ish o'rinlari tashkil etish muammolarini izchil hal etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotdagi band aholi soni 2,5 foizga o'sdi va deyarli 11,9 million kishiga yetdi, iqtisodiyotning nodavlat sektoridagi band bo'lgan kishilar ulushi 79,4 foizni, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar – 74,2 foizni tashkil etdi. Bandlikning eng yuqori o'sish sur'atlari qurilishda (105,2 foiz), uy-joy-kommunal xo'jaligida va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishda (105,1 foiz), savdo va umumiy ovqatlanishda (105,0 foiz), transport va aloqada (104,4 foiz) qayd etildi.

2.3-jadval

Samarqand viloyatida 2007-2011 yillarning 1 yanvar holatiga mehnat resurslari va aholining ish bilan bandligi (ming kishi)

Ko'rsatkichlar	2007y.	2008y.	2009y.	2010y.	2011y.	2007-2011 yillarda o'sish (%)
Aholi umumiy soni	2865,3	2912,3	3002,1	3060,5	3065,4	106,8
Shu jumladan: yoshlar	789,7	791,2	810,6	828,2	854,3	104,9
Mehnat resurslari	1551,0	1668,0	1687,6	1695,1	1732,1	109,3
Shu jumladan: Yoshlar	445,9	450,4	457,9	469,7	486,8	104,2
Ish bilan bandlar soni	1069,9	1080,7	1180,2	1152,0	1232,1	107,7
Shu jumladan: yoshlar	288,9	291,8	318,6	343,5	356,3	118,9
Ishlashga muhtoj aholi soni	25,9	22,5	22,5	23,1	23,2	89,2
Shu jumladan: yoshlar	7,0	6,1	6,1	6,2	6,2	88,6

Manba: Samarqand viloyat Davlat statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi qo'shilgan xalqaro-huquq hujjatlari va normalariga to'la-tukis mos keladi. Shuningdek, XMT ning 1973 yilda eng kichik yosh to'g'risidagi 138- Konvensiyasida har qanday ish turida yoki yollanib ishlashda eng kichik yosh-14 yosh deb belgilanishi mumkinligi ko'rsatilgan¹.

¹ Халқаро меҳнат ташкилотининг асосий конвенциялари ва тавсиялари. –Т.: “Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси миллий маркази”, 2008. –Б. 60.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Samarqand viloyatida aholi soni 2007-2011 yillarda aholining umumiy soni 195,2 ming kishiga (6,8%ga) o'sgan. 2007 yilda umumiy aholi tarkibida yoshlarning hissi 27,6% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2011 yilda 27,1 5 dan iborat bo'lgan.

Tahlil etilayotgan yillar mobaynida viloyatda mehnat resurslari sonining umumiy o'sishi (9,3%)ga nisbatan mehnatga layoqatli yoshlar soni pastroq (4,2%) sur'atlarda oshib borgan. Lekin 2007-2010 yillarda yoshlarning ish bilan bandligi muntazam o'sish (18,9%) tendensiyasiga ega. Bunday xolat yoshlarni ishga joylashtirish bo'yicha samarali siyosatning amalga oshirilishi hamda ishlashga muhtoj yoshlarning 2006-2010 yillar ichida qisqarib (88,6%) borishi natijasidir (2.3- jadval).

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmning muhim vositalaridan biri bo'lgan o'smirlarni vaqtincha ishga joylashtirishni tashkil qilish davlat ijroiylar hokimiyati idoralari, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash idoralari, balog'atga yetganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, yoshlar ishlari bo'yicha ko'mitalarning bevosita ishtirokida o'tkazilishi va ish beruvchilar, hamda kasaba uyushmalar, yoshlar, bolalar va boshqa jamoa tashkilotlari va birlashmalari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi kerak.

2.4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand viloyatida jami ishchi kuchiga taklif 148570 kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2007 yilga nisbatan 150,9 %ga o'sgan. Shundan, ilk bor ish qidirayotgan yoshlar 2011 yilda 66894 kishini tashkil etib, mazkur ko'rsatkich tahlil etilayotgan yillar ichida 187,3 %ga o'sgan.

Shuningdek, qishloq joylarda ilk bor ish qidirayotgan yoshlar soni 2011 yilda 56726 kishidan iborat bo'lgan hamda 2007 yilga nisbatan 188,0%ga oshgan. Keyingi yillarda XTBYularning kunduzgi bo'limini bitiruvchilari hissi viloyat bo'yicha kamayish (87,5 %) tendensiyasiga, O'MKHK kunduzgi bo'lim bitiruvchilari hissi o'sib borish (163,9 %) tendensiyasiga ega bo'lgan.

Bizning fikrimizcha, yoshlar mehnat bozorining kon'yukturasini miqdor va sifat nuqtai nazaridan tadqiq qilish maqsadga muvofiq zotan qishloq yoshlari mehnat bozori qishloq mehnat bozorining alohida segmentida shakllanadi.

2.4-jadval

Samarqand viloyatida 2007-2011 yillarda yoshlari ish kuchiga taklif (kishi hisobida)

№	Ko'rsatkichlar	2007 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2007-2011 y.y.da o'sish, (%)
1	Jami taklif	98401	100369	142110	148570	150,9
2	Shundan: ilk bor ish qidirayotgan yoshlar jami	35696	36410	64652	66894	187,3
3	Shundan: qishoq joylarda ilk bor ish qidirayotgan yoshlar jami	30163	30839	54824	56726	188,0
4	Shundan: o'rta ta'lim va umumta'lim maktablarining bitiruvchilari	20480	20939	21335	21491	104,9
5	XTBYularning kunduzgi bo'limini bitiruvchilar	4442	4541	4189	3888	87,5
6	O'MKHK kunduzgi bo'lim bitiruvchilari	14318	20588	23006	23481	163,9
7	OO'Yularining kunduzgi bo'lim bitiruvchilari	7389	7431	7492	7511	101,6
8	Harbiy bo'limga chaqiriluvchilarning barcha toifalari	1179	1190	1199	1216	103,1

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Hozirgi kunda respublikamiz qishloq yoshlari ishchi kuchlari taklifining miqdori unga bo'lgan ehtiyojning talablariga to'liq mos kelmaydi. Shuning uchun

qishloq mehnat bozori kon'yukturasini ifodalaydigan ikkita o'zaro bog'langan guruhlardagi omillar va shart-sharoitlar holatini ta'riflovchi miqdor va sifat ko'rsatkichlarini ajratish zarur.

2.5-jadval

Samarqand viloyatida qishloq yoshlari ish kuchiga talab (kishi hisobida)

№	Ko'rsatkichlar	2007 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2007-2011 y.y.da o'sish, (%)
1	Jami ish kuchlariga talab	91522	93352	136286	142174	155,3
2	Shundan: qishloq joylarda	77336	79069	115454	120563	155,9
3	Shundan: o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limiga umumta'lim bitiruvchilaridan tashqari o'qishga kirganlarning o'rini to'ldirish, jami	30199	30840	31296	31653	104,8
4	Shundan: O'MKHKlarning kunduzgi bo'limiga kiruvchilar	20539	19708	20940	23702	115,4
5	OO'Yularining kunduzgi bo'limiga kiruvchilar	4478	4572	7395	7471	166,8
6	XTBYularga kiruvchilar	6642	6863	6788	6692	100,7

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Birinchii guruhga quyidagilar kiradi: iqtisodiyot agrar sektorining holati; moddiy-texnik ta'minoti darajasi; ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish holati, qishloq qurilishi sanoati, shaxsiy yordamchi xo'jaliklar va uyda ishlovchilar mehnatining holati; ko'p ukladli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitlarida fermer xo'jaliklari faoliyati, ijara, hissadorlik, xususiy, qo'shma va boshqa xo'jaliklarni islohot qilinishi darajasi; tovarlar va xizmatlar, sarmoyalar, qimmatli qog'ozlar va ilmiy ishlanmalar bozorining shakllanishi darajasi; tabiiy boyliklarning mavjudligi va h.k.

Ikkinchi guruhga esa quyidagilar kiradi: ma'lumoti, malakasi va kasbni egallaganlik darajasi; yuqori malakali qishloq kadrlarini tayyorlash bilan shug'ullanuvchi o'quv yurtlarining holati; mehnatga layoqatli ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qishloq yoshlari jinsi bo'yicha tuzilishi; ish haqi va boshqa manbalardan, ayniqsa, shaxsiy yordamchi xo'jaliklaridan olinadigan mehnat daromadlarining darajasi; ishsizning ijtimoiy va ruhiy holati; yollash bo'yicha ish taklif qiluvchi mehnat jamoasidagi ijtimoiy-ruhiy muhit; milliy-etnik an'analar va qishloq yoshlarining kasbiy harakatchanligi va boshqalar.

Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, Samarqand viloyatida jami ish kuchlariga talab 2007-2010 yillar mobaynida 155,3 %ga o'sgan. Shundan, qishloq joylarda o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limiga umumta'lim bitiruvchilaridan tashqari o'qishga kirganlarning o'rnini to'ldirish 2010 yilda 31653 ta yoshlarni tashkil etgan holda, bu ko'rsatkich 2007 yilga nisbatan 104,8 %ga o'sgan. 2.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyati qishloq mehnat bozori va umuman mehnat bozorining samarali shakllanishida prinsipial farqlar mavjud. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

Mamlakatimizda yangi ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, pudrat asosidagi qurilish, shu jumladan, uy-joylarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari ko'lamini kengaytirish hisobidan yaratilmoqda.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2011 yilda respublikada 950 mingda ortiq ish o'rnini tashkil etilgan (2.6-jadval).

2.5-jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlar yurtimizda tashkil etilgan ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni hamda uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish hisobidan yaratilganidan dalolat beradi.

2.6-jadval

O'zbekiston Respublikasida yaratilgan ish o'rinlari soni, birlik

T/r	Yo'nalishlar	Yillar		
		2010	2011	2012 dastur
	Barcha yo'nalishlar bo'yicha yaratilgan yangi ish o'rinlari, jami (ish o'rni)	950 001	956 247	967464
	shu jumladan:			
1.	Yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni kengaytirish va quvvatlarni yangilash	56 316	57469	57874
2.	Kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil qilish	347 408	365888	365897
	shundan:			
2.1.	sanoatda	52 882	54941	55921
2.2.	qurilish-pudrat ishlarini kengaytirish, jumladan, uy-joy qurilishi va ta'mirlash	43 632	43863	43988
3.	Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish	129 177	111871	117180
4.	Uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish	207 972	216165	217188
4.1.	shu jumladan, korxonalar bilan kooperasiyada mehnat shartnomalari asosida kasanachilik	62 518	55357	-
5.	Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish (parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va boshqalar)	127 732	122399	122737
6.	Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish	61 320	72850	72994
7.	Ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash	8 889	9605	13594
8.	Bozor infratuzilmasini rivojlantirish	11 187	-	-

Manba: Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shu o'rinda aytish joizki, 2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining quyidagi asosiy yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi tasdiqlangan prognoz parametrlarni bajarishga imkon berdi:

a) 2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi dastur, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashning tarmoq dasturlari, 2011 yilgi Investisiya dasturi, 2011-2013 yillarda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi, ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlantirish hududiy dasturlari doirasida eng muhim investisiya loyihalarini amalga oshirish natijasida 48,9 mingta ish o'rni tashkil etildi.

Tashkil etilgan korxonalar va ish o'rinlarining asosiy qismi yengil, to'qimachilik, avtomobil, kon-metallurgiya, neft va gaz hamda kimyo sanoati tarmoqlariga to'g'ri keldi. 2011 yilda mamlakat bo'yicha 828 ta ishlab chiqarish

obyekti, shu jumladan oziq-ovqat sanoatda (279 ta), qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida (234 ta), yengil sanoatda (201 ta), yog'ochni qayta ishlash sanoatida (36 ta), mashinasozlikda (12 ta), kimyo (8 ta), farmasevtika (3 ta) sanoatida va boshqa sanoat tarmoqlarida (55 ta) ishga tushirildi.

b) «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturi, kichik biznesni rivojlantirish hududiy dasturlari chora-tadbirlarini amalga oshirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, ayniqsa kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlari berish bo'yicha qonun hujjatlarini qabul qilish, kreditlashni va moddiy xomashyo resurslarini olish imkoniyatlarini kengaytirish hisobidan kichik biznesda (kichik korxonalar va mikrofirmalar) 296,1 mingta, xususiy tadbirkorlikda 89,7 mingta ish o'rni tashkil etildi.

Kredit bilan qo'llab-quvvatlashning kengaytirilishi tadbirkorlik subyektlarining ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarini ancha kengaytirish imkonini berdi. Chunonchi, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar hajmi 3,1 trillion **so'mni**, shu jumladan, imtiyozli mikrokreditlar 613,3 milliard so'mni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 1,5 barobar ko'p. Bunda 20,9 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan hududlardagi tadbirkorlarga, 251,9 milliard so'mi xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga, 20,3 milliard so'm o'zining tadbirkorlik ishini tashkil etish uchun kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga berildi.

v) kasanachilik mehnatini rivojlantirish bo'yicha qator kattagina imtiyoz va preferensiyalar, shu jumladan, kasanachilarga buyurtmalarni, uskunalarni, xom ashyoni, asbob va jihozlarni imtiyozli ravishda berish shartlarini, kasanachining uydagi ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash tartibini, korxonalarni kasanachilarga to'lanadigan mablag' miqdorida ish haqi jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovdan ozod etishni ko'zda tutadigan huquqiy va normativ baza yaratilgani kasanachilikning barcha turlarini rivojlantirish hisobidan 191,9 mingta ish o'rnini tashkil etish imkonini berdi.

O'tgan davrda kasanachilar bilan ishlab chiqarish va mehnat munosabatlariga sanoat, qurilish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasidagi 5,4 mingdan ortiq korxona jalb etilgan bo'lib, ularda kasanachilar bilan kooperasiya asosida mehnat shartnomalari bo'yicha 55,8 ming kishining bandligi ta'minlandi.

Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari 136,1 mingta ish o'rni tashkil etilishini ta'minlash imkonini berdi.

g) Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizasiya qilish, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish dasturini amalga oshirish, fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish 120,8 mingta ish o'rni, shu jumladan, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda 35,4 mingta, bog'dorchilikda va issiqxona xo'jaliklarida 37,8 mingta ish o'rni tashkil etilishini ta'minladi.

Fermer xo'jaliklarida meva-sabzavot hamda go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash va saqlashni tashkil etish, 56,4 ming tonna sig'imga ega bo'lgan 55 ta sovutish kamerasini qurish va rekonstruksiya qilish 19,7 ming kishini mehnat faoliyatiga jalb etish imkonini berdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish **bo'yicha** ixtisoslashtirilgan dehqon xo'jaliklari sonining ko'payishi 27,9 mingta ish o'rni tashkil etishga yordam berdi.

d) 2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikasiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risidagi dasturni, obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish hududiy dasturlarini amalga oshirish 59,7 mingta ish o'rni yaratishga olib keldi. Shundan 20,2 mingta ish o'rni avtomobil va temir yo'l, gaz va suv quvurlarini o'tkazish hamda rekonstruksiya qilish obyektlarida, kommunal xo'jaligining boshqa obyektlarida, aholi punktlarini obodonlashtirish, shuningdek O'zbek milliy avtomagistrali yo'l bo'yi infratuzilmasini va servis obyektlarini rivojlantirish ishlari hisobidan tashkil etildi. Ijtimoiy va bozor infratuzilmasi obyektlarining qurilishi va ishga tushirilishi 39,5 mingta ish o'rni yaratilishini ta'minladi.

ye) Ishlamayotgan korxonalarning, shu jumladan, tijorat banklari balanslariga olingan bankrot korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini tiklash 8,3 mingta ish o'rnini qayta tiklashga imkon berdi.

2.7-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida yaratilgan ish o'rinlari soni dinamikasi (birlik)

Hududlar	Y i l l a r				2011 yilda 2008 yilga nisbatan o'zgarish	
	2008	2009	2010	2011	+, -	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	28602	48064	48118	48362	19760	169,1
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	55670	77889	77902	78292	22622	140,6
Buxoro	54266	72904	72998	73363	19097	135,2
Jizzax	29566	43297	43317	43515	13949	147,1
Qashqadaryo	59191	85734	86444	86890	27699	146,8
Navoiy	30139	39870	40321	40596	10457	134,7
Namangan	49672	70762	71039	71778	22106	144,5
Samarqand	63570	91712	92020	92700	29130	145,8
Surxondaryo	44296	63686	63706	64644	20348	145,9
Sirdaryo	28660	37899	37920	38623	9963	134,7
Toshkent	52719	85333	85500	86000	33281	163,2
Farg'ona	63286	90050	91173	91246	27960	144,1
Xorazm	37110	59192	59182	59575	22465	160,5
Toshkent sh.	64159	74140	80361	80663	16504	125,7
Respublika bo'yicha	660906	940532	950001	956247	295341	144,6

Manba: Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Xususan, 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari balanslariga jami 163 ta bankrot korxona qabul qilingan bo'lib, ulardan 92 tasi yangi mulkdorlarga realizasiya qilingan, 54 tasida ta'mirlash-tiklash ishlari davom etmoqda, 12 tasida esa modernizasiya qilish va ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash amalga oshirilmoqda. Bunda 54 ta korxona negizida birlashtirish va qayta tashkil etish yo'li bilan 45 ta yangi korxona tashkil etildi.

Respublika hududlarida ish o'rinlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilib, ularning soni yil sayin ortib bormoqda (2.7-jadval).

Ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash hududiy dasturlarining amalga oshirilishi ish bilan band bo'lish ehtiyoji yuqori darajada bo'lgan hududlarda,

chunonchi, Samarqand (78,3 ming), Farg'ona (77,8 ming), Andijon (75,2 ming), Qashqadaryo (72,6 ming), Toshkent (70,4 ming), Buxoro (59,9 ming) va Namangan (59,4 ming) viloyatlarida ish o'rinlarini ko'paytirishga yordam berdi.

Mehnat resurslari ortiqcha bo'lgan 32 ta tuman va shaharda aholi bandligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratildi, ularda 118,3 mingta yoki tasdiqlangan parametrlarga nisbatan **4,2** foiz ko'p ish o'ri tashkil etildi.

Dasturni ro'yobga chiqarish doirasida **2011** yilda bo'sh turgan va yangi tashkil etilgan ish o'rinlariga **487,3** ming kishi ishga joylashtirildi, ulardan **215,7** ming nafari ayollar, **347** ming nafari qishloq tumanlarida yashovchilardir. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari tomonidan ishga joylashtirilganlarning ko'pchiligini birinchi marta ish qidirayotganlar, shuningdek, o'z xohishiga ko'ra va korxonalar qayta tashkil qilinishi hamda tugatilishi munosabati bilan ishdan bo'shaganlar- **241,9** ming kishi, kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar - **214,9** ming kishi, **30** yoshgacha bo'lgan yoshlar - **262,1** ming kishi tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan ish o'rinlari soni ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida aholining ish bilan bandligini ta'minlashga yordam beradi.

2.2. Yoshlar ish bilan bandligini ta'minlash va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish ko'lamini kengaytirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi.

Shu jihatdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "...kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hozirgi vaqtda – shunga alohida e'tibor berishingizni so'rayman – 54 foizni tashkil etishining o'zi, o'ylaymanki, ko'p narsani anglatadi"¹

Mustaqillik yillarida kichik biznes subyektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari yetarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotganligi hisoblanadi. Xususan, 2010 yilda kichik biznes subyektlari uchun belgilangan yagona soliq to'lovi 8 foizdan 7 foizga pasaytirilgan bo'lsa, 2011yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga kamaytirilishi xo'jalik yurituvchi subyektlar investisiya faoliyatining kengayishiga xizmat qildi. Buning natijasida bo'shab qolgan qariyb 80 milliard 300 million so'm mablag'ni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo'naltirish imkoni paydo bo'ldi.

Mamlakatimizda ish bilan band aholining 74 foizidan ortig'i aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida bandligi bu sohaga e'tiborni yanada kuchaytirishni, jumladan tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratishni ko'paytirishni va shu asosida yangi ish o'rinlarini tashkil etish, barqaror daromad manbalarini shakllantirishga zamin yaratish zarurligini taqozo etadi.

Bu borada 2011 yil davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga jami 4 trln. 41 mlrd. so'm (o'tgan yilga nisbatan 150,2 foizga ko'p) miqdorida kredit, shu jumladan 752 mlrd. so'm (o'tgan yilga nisbatan 155 foizga

¹ 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar soni.

ko'p) mikrokreditlar ajratilib, ushbu mablag'lar hisobiga hududlarda 291126 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Shu bilan birga, "Mikrokreditbank" tomonidan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni faollashtirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratish hamda respublika qishloqlarida mikromoliyaviy xizmatlarni kengaytirish maqsadlari uchun 159,7 mlrd. so'm miqdoridagi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatilib, 104500 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Albatta, mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga yanada yangi zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish takomillashtirilib borilishi talab etiladi.

Shu munosabat bilan 2011 yilning 1 yanvaridan boshlab amaldagi qayta moliyalashtirish stavkasi pasaytirildi. Bu esa o'z navbatida tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kreditlarning foiz stavkalarining pasayishiga olib kelib, natijada ushbu subyektlar tomonidan bank kreditlaridan foydalanish orqali o'z bizneslarini rivojlantirishga yanada ko'proq imkoniyatlar yaratdi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy investisiyalar keng jalb etilmoqda. Xususan, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Germaniya taraqqiyot banki (KfW), Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati va boshqa xorijiy investorlar tomonidan katta miqdorda kreditlar ajratilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizdagi ustuvor yo'nalishlardan biri - aholi bandligini oshirish, ishchi kuchidan maqsadli foydalanish, foydali mehnatga layoqatli aholining ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilmoqda.

Quyidagi 2.4-jadvalda Samarqand viloyatida yoshlar mehnat bozoridagi holat keltirilgan.

2.8-jadvaldagi tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand viloyatida yoshlar mehnat bozoridagi holat bo'yicha 2007-2011 yillarda aholining umumiy sonida yoshlarning hissasi 27-28 % atrofida tebranib turgan. Shuningdek, 2007 yilda

viloyat bo'yicha yoshlar 791,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilga kelib, bu ko'rsatkich 56,4 ming kishiga ko'paygan.

2.8-jadval

Samarqand viloyatida yoshlar mehnat bozoridagi holat (ming kishi)

№	Ko'rsatkichlar	2007 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2007-2011 y.y.da o'sish, (%)
1	Aholi umumiy sonida yoshlar, jami	791,2	810,6	828,6	847,6	107,1
2	16-29 yoshdagi mehnat resurslari soni	420,4	437,9	448,1	456,4	108,6
3	Ish bilan band yoshlar soni	291,8	318,7	343,5	367,4	125,9
4	Ishga joylashishga muhtoj yoshlar soni	6,1	6,1	6,2	9,5	155,7
5	Shundan: a) mehnat bo'limlarida ishsiz deb e'tirof etilganlar	0,9	0,9	0,95	1,3	144,4
6	b) mustaqil ravishda ish qidiruvchilar	5,2	5,2	5,25	8,2	157,7

Manba: Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yoshlarni umumiy sonining o'sishiga (107 %) nisbatan 16-29 yoshdagi mehnat resurslari soni tahlil etilayotgan davrlar ichida yuqoriroq ko'rsatkichda, ya'ni 108,6 %ga o'sgan.

Respublikamizda yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha samarali siyosatning amalga oshirilishi natijasida 2006-2009 yillarda ish bilan band yoshlar soni 125,9 %ga oshgan. Lekin ishga joylashishga muhtoj yoshlar soni 2007 yil 6,1 ming kishidan 2011 yil 9,5 ming kishiga oshgan. Shuningdek ishsiz deb e'tirof etilgan yoshlar hissasi ham bu davrlar oralig'ida 144,4 %ga o'sgan.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida, "Kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasi barchamizning jiddiy va doimiy e'tiborimiz markazida

turishi zarur. Bu yil yurtimizda 516 ming nafardan ziyod yigit-qiz kollej va liseylarni tamomlaydi. Ularning qayerga ishga joylashishini hozirdanoq aniq belgilab olish, korxonalar bilan ishlab chiqarish amaliyotini o'tash va undan so'ng ishga qabul qilish bo'yicha shartnomalarning o'z vaqtida tuzilishini ta'minlash – bunday masalalarni alohida nazoratga olish lozim”¹, – deb ta’kidladi.

Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha, bugungi kunda respublikamizda jami band bo'lganlarning 20 foizi davlat, 80 foizi nodavlat, shuningdek, 74 foizi xususiy sohada mehnat qilmoqda. Ushbu statistik raqamlar tahlili davlat korxonalarida ishlovchilarni soni qisqarib, xususiy sohada bandlikni ortishi yuz berayotganligini ko'rsatadi. Bu esa respublikamiz hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilishi, shuning asnosida aholining bandligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mamlakat aholisining ish bilan bandligi darajasini oshirish va mehnat bozorini tartibga solish sohasidagi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilmoqda:

- iqtisodiyotni rivojlantirish negizida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochilib, bu faoliyat qizg'in qo'llab quvvatlanmoqda;
- aholining mehnat faolligini, oilaviy ijara, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish negizida aholining o'zini-o'zi ish bilan band qilish darajasi oshirilmoqda;
- aholining ish bilan bandligi va mehnat bozori takomillashtirilmoqda. Buning uchun zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarni tugatish yoki ixtisosini o'zgartirish ishlari olib borilmoqda.

Bizning fikrimizcha, ishchi kuchiga talabni oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlardan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga

¹ 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar soni.

oshirishdir. Bunga eng avvalo mulkchilik shakllarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish joylarini yaratish, ish vaqtdan unumli foydalanish, ishlovchilarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ko'tarish, soliqlarni oqilona belgilash orqali erishiladi.

Bu tadbirlar qo'shimcha ish joylarini tashkil qilishda eng kam investisiyani nazarda tutadi va ishchi kuchiga talabni oshirishda muhim o'rin egallaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini mablag'lar bilan ta'minlashning manbalari bo'lib mahalliy byudjet, bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hamda xususiy tadbirkorlarning shaxsiy jamg'armalari xizmat qiladi. Bugungi kunda ayniqsa, mintaqalarda aholi bandligi, ishlab chiqarishni ishchi kuchi bilan ta'minlash masalalarini o'rganishni hayotni o'zi taqozo etmoqda.

Respublikamizda mehnat birjasi va bandlik xizmatining boshlang'ich tashkilotlari tashkil etilib, ular ishsizlik va bo'sh o'rinlar miqdori va tuzilishining hisob-kitobi, tahlili va kelajagi, band bo'lmagan aholini ishga joylashtirish va qayta o'qitish, bandlikka ko'maklashish jamg'armasini tashkil qilish va sarflash ishlari bilan shug'ullandilar, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik doirasida imtiyozli kreditlarni ajratish yo'li bilan yangi ish joylarini yaratishga muayyan moliyaviy yordam ko'rsatildi. Iqtisodiyot tarmoqlarida, ayniqsa qishloq xo'jaligida tarkibiy islohotlar amalga oshirilib xodimlar va ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari yaratildi va boshqalar.

Keyingi 10 yil davomida o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimida 100 dan ziyod yo'nalish, 265 ta mutaxassislik va 700 ta kasb bo'yicha ta'lim olgan va zamonaviy fikrlash salohiyatiga ega bo'lgan bir million nafardan ortiq yangi avlod mutaxassislari tayyorlandi.

Yuqoridagilarga asoslanib, respublikamiz va uning mintaqalarida aholining bandligini oshirish, ishchi kuchidan samarali foydalanishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– ma'lumki, mamlakatimizda aholining 62,5 foizidan ko'prog'i qishloq joylarida yashaydi. Shunga muvofiq mehnatga yaroqli aholining ham shuncha

qismi qishloq aholisi hisobiga to'g'ri keladi. Shuning uchun qishloq aholisining faoliyati sohalari va turlarini kengaytirish talab qilinadi;

– ayni paytda bugun alohida muhim ahamiyat kasb etadigan yana bir masala – yoshlarni, bo'lg'usi kadrlarni tayyorlash sifati bilan bog'liq. Tabiiyki, bu borada pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi qanday tashkil etilgani hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu masala umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni isloh qilish tizimining eng dolzarb vazifasi bo'lmog'i zarur. Lisey va kollejlarimizda ta'lim jarayonlariga oliy o'quv yurtlarining tajribali amaliyotchi va o'qituvchilarini yanada keng va faol jalb etish lozim;

– ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozori faoliyatini yildan yilga kengaytirib borib, ular tomonidan o'tkazilayotgan mehnat yarmarkalarini muntazam o'tkazilishini ta'minlash zarur;

– ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga soluvchi mustahkam rivojlangan mahalliy va xorijiy bandlik xizmati tashkilotlari tizimini takomillashtirish lozim;

– respublika va uning mintaqalarida yangi ish joylarini tashkil etish, aholi bandlik darajasini oshirish va ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadli foydalanish bo'yicha chuqur iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zarur;

– aholini oqilona bandligini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan dasturlarning monitoringini muntazam olib borish lozim;

– qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish sohaslarida yangi ish joylarini yaratish kerak;

– ishchi kuchiga talabning oshishi va ishsizlikning kamayishini ta'minlovchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish lozim;

– xizmat ko'rsatish sohaslarini samarali mahalliy va xorijiy texnika va texnologiya bilan ta'minlash darkor;

– mehnat bozori, ishsizlik va aholi bandligi jarayonlarini tartibga soluvchi tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish lozim.

Shu bilan birga mamlakat mehnat bozori rivojlanishida qator muammolar mavjud bo'lib, ulardan eng muhimi mehnat resurslarining salmoqli qismini tashkil etuvchi yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash muammosidir.

Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 21 yanvarda bo'lib o'tgan majlisida umuman aholini, shu jumladan yoshlarni ish bilan ta'minlash, jumladan, shahar, viloyatlardagi yoshlarni kollejni bitirganlaridan so'ng o'z sohalarini bo'yicha ish topishlarini ta'minlash borasida maqsadli rejalar tayyorlash va uni amalga oshirish masalalarini o'rganib chiqishni, "korxona-kollej" aloqalarini yo'lga qo'yishni qo'llab-quvvatlashni ta'kidladilar.

Mehnat bozorida yoshlar guruhining boshqa guruhlariga qaraganda betakrorligi shundaki, aynan yoshlar mehnat bozoriga ilk bora kirib boradilar. Ular mobil, yangilikka tez o'rganuvchan, o'z kuchiga ishonuvchan, lekin yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash borasida bajarilayotgan ishlardagi xatoliklar va kamchiliklar ularning sohalariga mos ish topishlari, hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli ish haqi bilan ta'minlanmasliklariga olib keladi. Hozirgi davrda yoshlarni ish bilan ta'minlash borasida bir qancha muammolar mavjud, jumladan:

- ko'pchilik yoshlar o'zlari hali qanday firma yoki kompaniyada ishlashni xohlashlarini ko'z oldilariga keltira olmaydilar, ya'ni qanday ishni tanlashni aniq bilmaydilar;

- yoshlar ham, davlat ham o'qitish vaqtida ancha vaqtni oladilar, lekin shunga qaramasdan oliy o'quv yurtlarida olingan bilim hamma sohada ham yetarlicha bo'lavermaydi;

- yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardosh emasligi natijasida ish beruvchilar ularni yollashni hohlamaydilar, ko'pincha ular kamida 3 yillik ish stajiga ega bo'lganlarni olishni hohlaydilar.

Bu muammolarni hal qilish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyulda qabul qilingan "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash muammolarini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda yoshlarni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, kasb-

hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kollejlar va korxonalar o'rtasida bitiruvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini o'tashi va kelajakda mazkur korxonalarda ishga joylashishi bo'yicha shartnomalar tuzish yo'lga qo'yildi. Mazkur kelishuvlar asosida 2011 yilda 390 mingdan ortiq bitiruvchi ish bilan ta'minlandi.

Mamlakatimizning yoshlar mehnat bozorida talab va taklif muvozanatini ta'minlash maqsadida ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini rag'batlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish;
- yosh tadbirkorlarga moliya-kredit va xom-ashyo resurslarini olishlarida yordam berish tizimini shakllantirish;
- yosh tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish;
- ularning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi ishtirokini kengaytirishni qo'llab-quvvatlash;
- yosh tadbirkorlarni bozor konyunkturasi, xom-ashyo va moliyaviy resurslar bozori bo'yicha axborot bilan ta'minlovchi infratuzilmani shakllantirish;
- yosh tadbirkorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish va boshqalar.

2012 yilda mamlakatimizda 967,5 ming ish o'rinlari yaratish mo'ljallangan bo'lib, shundan, yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni kengaytirish va quvvatlarni yangilash hisobidan 57,9 ming ish o'rni, kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish hisobidan 365,9 ming ish o'rni, yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 117,2 ming ish o'rni, uy mehnati va kasanachilikni rivojlantirish hisobidan 217,2 ming ish o'rni, fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish hisobidan 122,7 ming ish o'rni, ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hisobidan 73 ming ish o'rni, ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash hisobidan esa 13,6 ming ish o'rni yaratiladi (2.9-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2012 yilda mamlakatimizda jami 967,5 mingta yangi ish o'rni tashkil etish mo'ljallangan bo'lib, ularning qariyb yarmini kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etishi yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish ishlari ko'lamini kengaytirish hisobidan yaratiladi.

2.9-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2011-2012 yillarda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash dasturi (ming kishi)

T/r	Yo'nalishlar	2011 yil	2012 yil
	Ish o'rinlarini tashkil etish, jami	956, 2	967,5
	shu jumladan, quyidagilar hisobidan:		
1.	Yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish, ishlab turgan korxonalarni modernizasiya qilish va kengaytirish	57,5	57,9
2.	Kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil etish	365,8	365,9
3.	Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish	111,9	117,2
4.	Kasanachilikning barcha shakllarini tashkil etish	216,1	217,2
5.	Fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish (parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik)	122,4	122,7
6.	Ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish	72,9	73,0
7.	Ishlamayotgan korxonalar faoliyatini tiklash	9,6	13,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Aholi tarkibidan ma'lumki, mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslar ichida bitiruvchi yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ta'limni rivojlantirish islohotlari va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida respublikamizda yoshlarning kasb-hunar kollejlari bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Shunga mos ravishda kollejlarni bitiruvchilar soni ham yildan-yilga ko'payib bormoqda.

Kasb-hunar kollejlari faoliyatidagi eng zaif bo'g'in hisoblangan ishga joylashtirish masalasini ijobiy hal qilish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

1) 9-sinf bitiruvchilari kasb-hunar ta'limi bilan to'laqonli qamrab olinishini nazarda tutgan holda, ularni o'qishga qabul qilishni tegishli ravishda tartibga solish;

2) O'qituvchilar tarkibini tayyorlash sifati va ularning malakasini oshirish masalasiga alohida ahamiyat qaratish;

3) Kasb-hunar kollejlari tamomlab chiqayotgan bitiruvchilarni ishga joylashtirish.

2.10-jadval

Samarqand viloyatida mehnat bozoridagi vaziyat va mehnat resurslarining shakllanish holati (ming kishi)

KO'RSATKICHLAR	2007 y.			2011 y.		
	Umumiy aholi soni	shulardan		Umumiy aholi soni	Shulardan	
		yoshlar	qishloq yoshlari		yoshlar	qishloq yoshlari
Doimiy aholi soni	2912	791,2	685,9	3225,6	847,6	731,4
Mehnat resurslari soni	1573,3	420,4	342,5	1702,1	456,4	369,2
Iqtisodiy faol aholi soni	1180,2	291,8	234,9	1351,4	362,9	289,6
Iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar	627,4	169,4	137,4	698,6	190	152,4
Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar	278,2	75,1	60,4	281,4	71,5	61,7
Kichik korxona, mikrofirma va fermer xo'jaliklarida band bo'lganlar	177,4	47,9	41,2	178,2	50	38,4
Yuridik shaxs maqomisiz tadbirkorlar (patent)	21,8	5,9	4,6	25,7	7,1	5,6
Dehqon xo'jaliklarida band bo'lganlar	130,1	35,1	28,9	144,3	43,8	32,8
Boshqa korxona va tashkilotlarda band bo'lganlar	19,9	5,4	4,2	69	17,6	13,9
Iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar	453,3	122,4	100,4	652,8	172,9	137,2
Vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarib yuruvchilar	164,7	44,5	36,4	196,2	51,1	40,5
Respublika hududidan tashqarida mehnat faoliyatini yuritish uchun chiqib ketganlar	29,3	7,9	4,8	34,1	10,2	6,7
Tadbirkorlarga yordam berayotgan oila a'zolari va ularga yollanib ishlovchilar	89,6	24,2	19,1	118,1	31,4	24,8
Ro'yxatdan o'tmasdan turib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar	169,7	45,8	37,1	304,4	80,2	65,2

Manba: Samarqand viloyati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi

Qishloq mehnat bozorida yoshlarga bo'lgan talab va taklif munosabatlari mehnat bozorida bo'lgan talab va taklif munosabatlariga nisbatan bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday xususiyatlardan birinchisi, qishloq yoshlariga malaka va kasb mahorati yetishmasligi bo'lsa, ikkinchisi, qishloq yoshlari shahar

yoshlariga qaraganda texnika asridagi yangiliklardan juda kech xabar topishi natijada zamonaviy texnika va texnologiyani qo'llashda sustkashliklarga olib kelayotganligidir.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, viloyat qishloq mehnat bozorida iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lgan qishloq yoshlari soni 2007 yilda 137,4 ming kishidan iborat bo'lib, mazkur ko'rsatkich 2010 yilda 152,4 ming kishiga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkichning tahlil etilayotgan yillar bo'yicha viloyat bo'yicha umumiy iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lgan yoshlarga nisbatan ulushi 2007 yilda 81,1 %, 2008 yilda 79,6 %, 2009 yilda 80,4 %, 2010 yilda 80,2 %larni tashkil etgan.

Samarqand viloyati bo'yicha iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar qishloq yoshlari 2007 yilda 100,4 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich 137,2 ming kishidan iborat bo'lgan.

Shu bilan birga, bugungi kunda kasb-hunar kollejlari tamomlab chiqayotgan bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalasini ijobiy hal qilish maqsadida korxonalarda kvotali ish o'rinlari shakllantirilmoqda; mehnat organlari kasb-hunar kollejlari bilan muntazam ravishda hamkorlikda ish olib bormoqda; kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish va ular mehnatidan samarali foydalanishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi viloyatlar, tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda har bir tuman va shahar bo'yicha kollejlarning bitiruvchilarini o'z mutaxassisligiga muvofiq ish bilan ta'minlash yuzasidan aniq maqsadli rejalarni tayyorlamoqda va ularni amalga oshirmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, 2012 yilda yangi ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlariquyidagilardan iboratdir:

- kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, oilaviy biznes va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish;
- uy mehnati (kasanachilik)ni rivojlantirish;

- yangi ishlab chikarish obyektlarini ishga tushirish, mavjud quvvatlaridan unumli foydalanish, korxonalarni kengaytirish;
- ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- fermer va aholi xo'jaliklari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish, intensiv texnologiyalarni joriy etish;
- ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash, moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqalar.

2.3. Yoshlarning ish bilan bandligini oshirish mezonlari va ko'rsatkichlar

Yoshlarning ish bilan bandligini oshirishda oqilona ish bilan bandlik shakllanishining barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida boyor muvozanatiga erishish; ish joylarini ko'paytirish; iqtisodiy faol aholining mehnatda ishtirokini oshirish; mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlash; aholining mehnat daromadlarini ko'paytirish; ishsizlikni kamaytirish va boshqalar.

Mazkur mezonlar quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: mavjud va yangi yaratilgan ish joylarining soni; bajarilgan ish vaqtining miqdori; aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIMning hajmi; mahalliy va jalb etilgan mehnat resurslarining soni; aholining migrasion oqimi; mehnatning fond va energiya bilan qurollanishi; ijtimoiy infratuzilma xizmatlarining miqdori; qishloq xo'jaligi har bir xodimini yer yuklanmasi; o'rtacha yillik ish haqi; aholining uy-joy bilan ta'minlanishi; mehnat resurslarining malaka va ma'lumot darajasi; asosiy fondlardan foydalanishning smenalik koeffitsiyenti; ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan shaxslar va ishsizlar soni hamda ularning nafaqa miqdori; mehnatning umumiy natijalaridan va ijtimoiy infratuzilma xizmatlaridan qanoatlanish darajasi; mulkchilikning turli xil shakllari va mehnatni tashkil qilishning samaradorligi va h.k.lar.

Yuqorida qayd etilgan mezonlar va ularning ko'rsatkichlaridan mehnatga

layoqatli yoshlarning oqilona bandligini shakllantirishni tartibga solish mexanizmlarini, tegishli maqsadli kompleks dasturini va ekonometrik modellarni hamda kompleks tahlili va istiqbolini belgilashning metodologik asoslarini yaratishda va ularni tatbiq etishda foydalanish mumkin.

Yoshlarning ish bilan bandligi ko'p ukkladli iqtisodiyotning muhim ijtimoiy jihati, chunki bu bilan kishilarning daromadi hosil bo'ladi, ular ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topadi, qobiliyat va iste'dodlarini yuzaga chiqara oladi. Ko'p ukkladli tuzilma esa, ish bilan bandlikning usuli va tarkibini yangilaydi, uning yangi shakllarini yuzaga keltiradi.

Ish bilan bandlik xarakteri kishilarning mulkiy maqomiga bog'liq bo'ladi. Kapital sohiblari tadbirkorlik bilan band bo'lsalar, mehnat ahli yollanib ishlaydi. Ish bilan bandlik darajasini mehnat bozoridagi talab belgilaydi, ammo bozor talabi doirasida ish bilan bandlik shaklini tanlash imkoni mavjud bo'ladi. O'tish davrida ish bilan bandlikni ta'minlashning bozor qoidalari bilan birgalikda, unga davlatning aralashuvi ham yuz beradi. Davlat ijtimoiy nizolar yuzaga chiqmasligi uchun ish bilan bandlikni oshirish choralarini amalga oshirib boradi, nodavlat sektorda yangi ishchi o'rinlarini yaratishni rag'batlantiradi, qonun yo'li bilan ish bilan bandlikni tartibga soladi.

Ish bilan bandlik mehnat resurslarining ukkladlararo erkin harakatini bildiradi, chunki totalitar tuzumdan farqliroq bozor munosabatiga o'tayotgan tizimda mehnat ahlini ayrim sektorlarga bog'lanib qolishi yuz bermaydi, chunki mehnatning erkin migrasiyasiga yo'l ochiladi.

Ko'p ukkladli tizimda ish bilan bandlikning erkin yollanib ishlashi, tadbirkorlik qilishi, vositachi bo'lishi, yakka mehnat faoliyati bilan xonaki – oilaviy ishlab chiqarish bilan shug'ullanishi, o'z-o'zini ish bilan band qilish kabi shakllari yuzaga kelib, ular barcha sohalar doirasida kechadi. Ayni bir vaqtning o'zida ish bilan bandlikning bir necha turlarini, masalan yollanib ishlash bilan tadbirkorlikni va o'z-o'zini ish bilan band qilishning chirmashib ketishi ham paydo bo'ladi. Iqtisoddagi rang – baranglik ish bilan bandlikka ham shunday tus

beradi. O'z navbatida xilma – xil ish bilan bandlik xilma – xil daromad shakllarini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiyotni yangilash sharoitida mehnat resurslarining ukladlararo erkin taqsimlanishi bo'lib tursa – da, turli ukladlardagi ish bilan bandlik darajasi, ish bilan bandlikning daromad keltirishi va qanchaga tushishi bir xil emas, albatta. Bu tabiiy ravishda ukladlardagi korxonalar salohiyotiga, ularning bozor bilan ta'minlanishiga, umumiy iqtisodiy vaziyatga bog'liq. Bir uklad uchun ish bilan bandlik sharoiti qulay bo'lgani holda, boshqasi uchun noqulay bo'ladi.

Ma'lumki, mehnat bozoridagi talab ko'p jihatdan tovarlar va investisiyalar bozoridagi talabga bog'liq bo'ladi. Turli uklad korxonalaridagi ish bilan bandlikni shu omil yuzaga keltiradi.

Bularning orasida ishlovchilar soni jadal oshib borayotgan joy – bu fermer va dehqon xo'jaliklari bo'lib, ular xususiy ukladning tayanch xo'jaliklaridir. Jamoa va davlat ukladida ish bilan bandlikning ortishi kuzatilmaydi, aksincha, ular hisobidan boshqa ukladlar rivojlanib, ularda ish bilan bandlikning o'sishi yuz beradi.

Ortiqcha ish bilan bandlik jamoa ukladiga xos jarayon, bu esa har bir ishchi o'zni beradigan daromadning kamayishiga olib keladi, iqtisoddagi ijtimoiy yo'nalishni kuchsizlantiradi.

Iqtisodiyotni yangilash sharoitida ish bilan bandlikning faqat miqdoriy emas, balki sifatli jihati ham mavjud, chunki ish bilan bandlik har bir shaxsga turlicha natija keltiradi. Shu jihatdan rasional, ya'ni oqilona ish bilan bandlik borki, bu ish joyidagi mehnat unumdorligining darajasi va shunga monand topilgan daromad bilan o'lchanadi. Mehnat unumdorligi davlat va aralash ukladida yuqori bo'lsa, jamoa ukladida u g'oyat pastligicha qolmoqda. Xususiy ukladida esa u g'oyat notekis bo'lib, buning asosiy sababi texnologiyalarning har xil bo'lishidir.

Ukladdagi unumdorlik texnologiyalardan tashqari korxonalarni uzilishlarsiz, muhim ishlashiga ham bog'liq. Bunga bozorbop tovarlar chiqarib, doimiy ravishda buyurtmalar olish ta'sir etadi. Texnologiyalar yaxshi bo'la turib, yuqori unumdorlikka erisha olmaslik aksiyador jamiyatlarga xos. Ular eski bozoridan

ajralib, yangi bozor topib ulgurmagan, mahsulotga talab bo'lsa-da, resurs topa olmasligi natijasida ishlab chiqapishda uzilishlar bo'lib turadi, bu esa unumdorlikning texnik darajaga nisbatan past bo'lishiga olib keladi. Xususiy ukklad korxonalari mahsulotlariga bozor talabi bo'lsa-da, qo'l mehnati ustuvor bo'lganidan unumdorlik past bo'ladi.

Bu ayniqsa, fermer va dehqon xo'jaliklariga xos. qishloqdagi ukladlarda asosiy fondlarni, birinchi navbatda mashina uskunalari to'zib ishdan chiqishi yuz bergan. Ba'zi bir tadqiqotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligidagi texnikaning ko'p qismi yaroqsiz bo'lib, to'la ishdan chiqib, temir – tersakka aylangan. Shu bois, xarajatlar tarkibida amortizasiya hissasining uzluksiz kamayib borishi kuzatiladi, yangidan ishga tushgan fondlarga nisbatan ishdan chiqqan fondlarning ortib borishi unumdorlikni ta'minlovchi moddiy bazani zaiflashtiradi. Bu ko'pchilik ukladlarda iqtisodiy o'sish resurslarining qisqarishiga olib keladi.

Xususiy ukklad korxonalari asosan erkin bozor uchun ishlaydi,da narxlarning o'sishi ular tushumini oshiradi. Natijada texnika bazasi kuchsizlangan sharoitda ham jon boshiga tushum ortishi mumkin bo'ladi.

Ukladlardagi mehnat unumdoligini aniq hisoblab chiqarish mushkul ishga aylangan, chunki uning natijasi korxonalarda bazaviy narxlarda emas, balki joriy narxlarda hisoblanadi, bu esa narxga inflyasiya ta'siri kuchli bo'lishini bildiradi. Inflyasiyadan tozalangan mehnat unumdorligi natijasi korxonalar miqyosida aniqlangan emas, ammo milliy iqtisodiyot miqyosidagi unumdorlikni bazaviy narxlar asosida hisoblashga intilish mavjud.

Xullas, yana bir jihat ukladlarning samarali ish bilan bandlikni ta'minlashdagi ishtiroki ham farqlanadi, ya'ni nodavlat ukladlar ish bilan bandlikni miqdoriy jihatdan ko'proq ta'minlanayotgan bo'lsa-da, ular to'liq samarali bo'lishiga hozircha erisha olayotganlari yo'q.

III BOB. O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Yoshlar mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari

Yoshlarni mehnat faoliyatiga jalb etish eng muhim umumdavlat, umummillat ahamiyatiga molik masaladir. Chunki bugungi kunda iqtisodiyot turli sohalaridagi mehnat jamoalari tarkibi, tadbirkorlar saflariga qo'shilayotgan yigit-qizlar O'zbekistonning keyingi 30-40 yildagi taraqqiyotini hal etadilar.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatbardoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha Dastur ishlab chiqilmoqda.¹

Bugungi kun sharoitlarida yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosini hal etish ta'lim muassasalari, ta'limni boshqarish, mehnat xududiy organlari, ish bilan bandlikka ko'maklashish markazlari, "Kamolot" ijtimoiy harakati, kasaba uyushmalari tashkilotlarining birgalikdagi aniq maqsadga yo'naltirilgan sa'y-harakatlariga bog'liqdir.

Iqtisodiyot, ilm-fan jadal sur'atlarda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda kasb-korlar, ixtisosliklar beqiyos. Yoshlar uchun ular orasidan o'z qobiliyati, iste'dodi, hohish-istaklariga mosini topish juda murakkab. Bu muammoni hal etishda kasblar to'g'risida xabardorlik qo'l keladi. Ana shu axborotga ehtiyoj hamda ko'pincha kadrlar tayyorlash tarkibi bilan muayyan mutaxassislariga bo'lgan talab o'rtasida mavjud bo'ladigan nomutanosiblik kasbga yo'naltirish tizimini yo'lga qo'yish zaruratini tug'diradi.

Kasbga yo'naltirish, fikrimizcha, shaxsning muayyan kasb egasi bo'lishga ehtiyoji hamda jamiyatning ijtimoiy-kasbiy tarkibni ta'minlashga ehtiyojini

^{1 1} Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т.: "Ўзбекистон", 2009. –Б. 37.

qondirishga yo'naltirilgan shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimidir.

Kasbga yo'naltirishning eng muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- kasbiy axborot – aholi turli guruhlari, ayniqsa yoshlarni zamonaviy ishlab chiqarishning turlari, mehnat bozori, xo'jalik majmualarining malakali mutaxassislariga ehtiyojlari, ixtisosliklar bozori mohiyati va uning rivojlanishi istiqbollari, kasb-korlarni egallash shakllari va imkoniyatlari, mehnat faoliyati jarayonida kasb malakasini oshirish xususiyatlari bilan tanishtirishdir;

- kasbiy maslahat – shaxsga uning qobiliyati, psixofiziologik va boshqa xususiyatlariga qarab, shuningdek jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muayyan kasb yoki ixtisoslikni tanlashda yordam ko'rsatishdir;

- kasbiy saralash – normativ talablar asosida shaxsning muayyan kasbga (xizmat vazifasi, ish o'rniga) layoqatli ekanligini aniqlash;

- kasbiy, ishlab chiqarish va ijtimoiy ko'niktirish – xodimning tegishli kasbiy, ijtimoiy sifatlarni egallashi, faol, ijodkor mehnat qilish, kasbiy mahoratini takomillashtirishga ko'maklashadigan chora-tadbirlar tizimidir.

Kasbga yo'naltirishning asosiy uslublari:

- shaxsiy, guruh, ommaviy, bevosita (leksiya, suhbat), bilvosita (ommaviy axborot vositalari orqali) xabardor etish;

- psixologik va tibbiy maslahat berish;

- psixologik, psixofiziologik, tibbiy diagnostika;

- turli pedagogik usullar.

Barcha rivojlangan davlatlarda yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularga kafolatli ish o'rinlari yaratish maqsadlariga juda katta miqdorda mablag' sarflanyapti. Yoshlarning ish bilan bandligiga sarf-harajatlar, birinchi navbatda, ish kuchi sifat tarkibini yanada takomillashtirish maqsadini ko'zlaydi va asosan uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan.

Bu chora-tadbirlar ta'lim muassasasini tugallagan yoshlarning mehnat faoliyatiga kirishishini imkoni boricha yengillashtirishga qaratilgan.

Hozirgi davrdagi iqtisodiy munosabatlar yoshlardan mehnat bozorining muttasil o'zgarib turadigan talabiga, ba'zan vaqtinchalik ishsizlikka, egallagan kasblarini, ish joylarini almashtirishga tayyor bo'lishlarini taqozo etadi. Bunday sharoitlarda yosh mutaxassis uchun oliy ma'lumot, yuqori malakaning o'zi yetarli bo'lmay qolishi mumkin. Ular mehnat bozoridagi keskin raqobatga bardoshli bo'lishlari uchun o'zlarida maqsadda sobitqadamlik, qat'iylik, malakalarini uzluksiz oshirib borishga tayyorlik, tavakkalchilik kabi xislatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga qodir bo'lishlari darkor.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar Rahimova D.N., Abdurahmonov O.Q., Zokirova N.Q. fikrlariga ko'ra, mehnat bozorida malakali ish kuchiga talab va taklif mutanosib bo'lgan taqdirdagina ta'lim darajasi va kasb (xizmat vazifasi) maqomi bir-biriga mos keladi. Agar malakali ishkuchiga talab yuqori malakaga ega mutaxassislarning ish kuchi taklifidan yuqori bo'lsa, ish beruvchilar mavjud ish o'rinlarini talab etilganidan pastroq malakaga ega ish kuchi bilan to'ldirishga majbur bo'ladilar. Mazkur holda personalga kasb talablari o'zgarishi ro'y beradi.

Aksincha, malakali ish kuchi taklifi talabdan yuqori bo'lsa, u yoki bu ixtisoslikka barqaror talab ta'lim muassasalarida mazkur mutaxassisliklarga ortiqcha talabni yuzaga chiqaradi. Ammo mehnat bozori o'zgaruvchan bo'lishi sababli ko'p o'tmay talab va taklif o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'ladi. Oqibatda ushbu ixtisosliklarni egallagan yoshlar bozor kon'yukturasining o'zgarishi tufayli kasb (xizmat vazifasi) maqomi pastroq, demak ish haqi miqdori ham pastroq ishlarga ham rozi bo'ladilar. Bu ta'lim muassasalari diplomlarining o'ziga xos qadrsizlanishini ketirib chiqaradi. Ish beruvchilar esa taklif talabdan ortiqligidan foydalanib, ish o'rinlariga kasbiy malaka talabini oshiradilar.¹

Mehnat bozorini samarali tartibga solish har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, o'z ichiga qonunchilik doirasidagi qoidalarni ishlab chiqish hamda ish beruvchi va yollanib ishlovchilar o'rtasidagi shartnoma majburiyatlarini bajarish kafolatlarini oladi.

¹ Рахимова Д.Н., Абдурахманов О.К., Зокирова Н.К. Образовательный маркетинг и рынок труда.-М.: «Сов.писатель», 2005. –С. 113-114.

Bizningcha, mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini ish bilan bandlik siyosati doirasida olib borish zarur. Yoshlar mehnat bozori xususida davlat har tomonlama yoshlarni qo'llab quvvatlashi zarur, chunki ularning malakasi va raqobatbardoshlik darajasi past. Shu bilan birga davlat tomonidan bu yordam mehnat bozorini o'z-o'zini tartibga solish mexanizmidan yuqoriroq darajada olib borilishi lozim.

Yoshlar mehnat bozoriga oid davlat siyosati maxsus respublika va hududiy dasturlar doirasida ishlab chiqilgan qonuniy aktlar asosida olib boriladi. Bu hujjatlarni hayotga tadbiq etishdan asosiy maqsad - zamonaviy mehnat bozorini shakllanish mexanizmlariga ta'sir o'tkazish orqali yoshlarning turli muammolarini yechishdir. Shuning uchun ham biz institusional mexanizmning xozirgi bosqichdagi o'rnini asosiy deb hisoblaymiz.

Institusional mexanizm doirasida amal qilayotgan dasturlar o'z navbatida mehnat bozorini tartibga solishning ijtimoiy hamda iqtisodiy mexanizmlarning samarali yuritilishiga ko'maklashadi. Ijtimoiy hamda iqtisodiy mexanizmlar institusional mexanizmning maqsadlariga aylanadi.

Yoshlarning samarali ish bilan bandligini ta'minlash va ular orasida ishsizlik darajasini kamaytirish mexanizmi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarning eng asosiylaridan hisoblanadi. Uning samarali faoliyat olib borishi quyidagi chora-tadbirlarni bajarishni talab etadi:

- 1) hududiy yoshlar mehnat bozoridagi o'ziga xos, xususiy muammolarni yechishda mahalliy boshqaruv organlari rolini kuchaytirish;
- 2) yoshlar o'rtasida yuqori ishsizlik darajasi kuzatilgan hududlarda davlat byudjeti hamda byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlar hisobidan hududda ijtimoiy iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish;
- 3) monoiqtisodiy tuzulmaga ega aholi punktlari, shahar va sanoati rivojlangan hududlarda yoshlarning ommaviy ishsizligining salbiy asoratlarini bartaraf etish;
- 4) yosh xodimlarni ommaviy ishdan bo'shatilishlarini oldini olish, yoshlar uchun mavjud ish o'rinlarini saqlab qolish va yangilarini yaratish, yangi

progressiv ishlab chiqarish uchun yosh kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni istiqbolli rejalashtirish;

5) iqtisodiy jihatdan nochor korxonalar yosh ishchilarining mehnat huquqlarini ta'minlash, ish joyini yo'qotgan yoshlarni samarali qo'llab-quvvatlash;

6) malaka oshirish hamda ijtimoiy himoyalash maqsadida kerakli bo'lgan infratuzilmaga ega yirik "yoshlar qurilishlari"ni tashkil etish.

Bizningcha, ushbu mexanizمنى amalga oshirishda davlat ish bilan bandlik xizmatining eng asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- mehnat bozorida yoshlarning ish bilandligining hozirgi holatini aniqlash, uni istiqbollashtirish, u yoki bu ixtisoslik bo'yicha mavjud vakant o'rinlari to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot tarqatish;

- ishdan bo'shash ehtimoli mavjud bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun maqsadli dasturlar tuzish va tadbiq etishga ko'malashish;

- yoshlarga ish qidirishda ko'maklashish, ish beruvchilar uchun nomzodlar to'g'risida ma'lumot yetkazib turish;

- ishsiz yoshlarni kasbga yo'naltirish, kasbiy malaka oshirish, qayta tayyorgarlikdan o'tish hamda kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish;

- ishsizlik bo'yicha ijtimoiy nafaqalar berilishini tashkillashtirish, ish bilan bandlik xizmatlarining yo'llanmasi bo'yicha o'qish jarayonida stipendiyalar berishni tashkil etish.

Yoshlarning ish bilan bandligiga ko'maklashish bilan bog'liq xarajatlar ish bilan bandlik organlari tomonidan bepul taqdim etilishi zarur.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy faol yoshlarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borilishi kerak:

- 1) qonun bilan ta'qiqlanmagan barcha turdagi sohalarda yoshlarning mehnat qilish huquqini ta'minlash;

- 2) qonun tomonidan belgilangan mehnat jarayonini ta'minlash, dam olish kuni, belgilangan ish vaqti miqdoridan ortiq ishlamaslik, o'z hohishiga qarshi majburan ishlatmaslik, mehnat ta'tilini to'lash, kasaba uyushmalarini tashkil etish;

3) davlat tomonidan berilgan minimal ish haqini to'lash hamda inflyasiya sharoitida daromadlarni indeksasiya qilib borish;

4) korxonaning bankrotga uchrashi, qayta tashkil etilishi, yopilishi yoki ish shtatining qisqartirilishida yosh ishchilarning ishdan ketish holatlarini cheklash.

Mehnat bozorini tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlariga yoshlar migrasiyasini tartibga solish mexanizmi ham kiradi. Yoshlar ijtimoiy qatlam sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar migrantlarning umumiy miqdorida yoshlarning hissasi katta bo'lishini keltirib chiqaradi va bu holat migrasiya jarayonlarini asosan yoshlarga xosligi sabab bo'ladi. Yoshlar otalaridan ajralgan holda yashashni, mustaqil hayot kechirishni xohlashadi. Boshqa shahar yoki boshqa davlatga migrasiya yoshlarni mustaqil hayotga kirib kelishini tezlashtiradi.

Hozirgi zamon yoshlari aholining boshqa qatlamlariga nisbatan turli sharoitlarga tez moslashib ketish qobiliyatiga ega. Shunday ekan, yoshlar mehnat bozorida migrasiya mexanizmini tartibga solish maqsadida davlat tomonidan bu jarayonni boshqarish uchun o'z ichiga ijtimoiy himoya, optimal soliqqa tortish, moliyaviy va transport ta'minoti, huquqiy himoya va h.k. kabi huquqiy va iqtisodiy normalarni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur.

Yoshlar mehnat bozorini tartibga solishning ijtimoiy mexanizmlariga kasb-hunar ta'limi tizimining amal qilinishini ham qo'shish lozim. Hozirgi sharoitda o'quv yurtlari o'z dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirishga harakat qilishmoqda. Shuning uchun ham bu yerlarda asosiy o'quv kursi dasturlariga o'quvchilarning dunyoqarashlarini kengaytiruvchi qo'shimchalar kiritish zarur. Bu bitiruvchilarni yangi ish joylarida mustaqil bilim olishga, yanada qiyin va murakkab kasblarni egallashga, malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda, viloyatda turli yo'nalishlardagi o'quv yurtlarining ish bilan bandlik muammolari kuchaymoqda. Bunday holat yaqin 3-5 yil ichida ham saqlanib qolish ehtimoli mavjud. Davlat ish bilan bandlik xizmati organlari u yoki bu mutaxassisliklar bo'yicha mehnat bozoridagi talabni ilmiy asoslash maqsadida mehnat bozori monitoringi o'tkazilishi o'quv yurtlari bitiruvchilarining ishsiz

bo'lib qolishining oldini bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Chunki o'quv yurtlarining bitiruvchilari ertaga ishsiz bo'lib yursalar, ularni o'qitish uchun ketgan xarajatlarni moliyalashtirish samarasiz bo'lib chiqadi.


Ijtimoiy hamkorlik mexanizmi, bir tomonidan mehnat bozorini tartibga solishning ijtimoiy mexanizmlaridan biri sifatida, o'z navbatida asosiy iqtisodiy mexanizm sifatida yuzaga chiqadi, chunki u ish kuchi narxini tartibga solish bilan bog'liqdir.

Zamonaviy yoshlar mehnat bozorini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlariga individual daromadlarni soliqqa tortish tizimini tartibga solishni ishlab chiqish, hayotga tadbqiq qilish va yanada takomillashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirishni kiritish mumkin.

Zamonaviy yoshlar mehnat bozorini tartibga solishda institusional, ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarining samaradorligini baholashda turli xildagi analitik usullardan foydalanilib, olingan natijalar asosida ularni yanada takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi.

3.4.-rasmda zamonaviy yoshlar mehnat bozorini tartibga solishning institusional mexanizmi integral modeli aks ettirilgan.

Ushbu model ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda yoshlar mehnat bozorini tartibga solishning institusional mexanizmlari ijtimoiy iqtisodiy mexanizmlarining faoliyati orqali amalga oshirilishi o'z aksini topgan. Ushbu mexanizmlarning yoshlar mehnat bozoriga ta'siri turli xildagi davlat va hududiy yoshlar dasturlarida keltirib o'tilgan. Iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarning yoshlar mehnat bozori faoliyatiga ta'siri uni tahlil qilish natijasida qonuniy aktlar yoki yoshlar dasturlari bilan qarama-qarshiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Bunda, odatda, bu qarama-qarshiliklarni yo'qotish to'g'risidagi qaror institusional mexanizm miqyosida qabul qilinadi. O'z o'zidan, agar iqtisodiy yoki ijtimoiy mexanizmlarni tadbqiq etish mobaynida muammolarga duch kelinsa, ularni qayta to'g'irlash va takomillashtirish ishlari olib boriladi.



3.1-rasm. Zamonaviy yoshlar mehnat bozorini tartibga solishning institusional mexanizmining integral modeli*

*Muallif tomonidan tuzilgan.

Yoshlarning mintaqaviy mehnat bozorini tadqiq etishimizdan maqsad viloyat iqtisodiyotining bugungi kundagi ahvoli hamda uning rivojlantirilishi istiqbollari, demografik vaziyatni tahlil etish asosida ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashni ish kuchiga bo'lgan talabga mutanosib bo'lishi yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqarishdan iboratdir.

Bozor munosabatlari sharoitlarida mutaxassislar tayyorlash va ularni ish bilan ta'minlashning ikki modeli keng tarqalgan. Ulardan biri ta'lim muassasalariga ta'lim xizmatini taqdim etuvchilar yosh mutaxassislarga esa pirovard natijada bu xizmatlarning iste'molchilari sifatida qaraydi. Ana shunday yondashuv mehnat bozorining joriy talabiga asoslanganligi sababli joriy kon'yukturadan kelib chiqqan holda zarur bo'lganidan ortiqcha mutaxassislar tayyorlashga olib keladi.

Ikkinchi modelga muvofiq ish kuchi uning malaka darajasi uchun chiqimlar hisobga olinmasdan tovar sifatida ko'riladi. Mazkur yondashuvda ham odatda joriy taklif inobatga olinadi, xolos. Ammo bu taklif kelgusida ham shu holda saqlanib qolishiga hyech kim kafolat bera olmaydi, albatta.

Yoshlarning mehnat bozori modeli, fikrimizcha, tadqiqotlar olib borishda muayyan tamoyillar amalga oshirilishini ta'minlashi kerak. Ular asosan quyidagilardan iborat bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz:

- mehnat bozori doimiy ehtiyoj sezadigan mutaxassislarnigina tayyorlashni ta'minlashga xizmat qiladigan istiqbolli talabni ko'zlagan holda ish tutish tamoyili;

- ta'lim xizmatlari turlari xilma-xilligi va dolzarbligi hamda mutaxassislarni jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash tamoyili. U ixtisosliklarga o'qitish va qayta o'qitishda qo'llaniladigan jarayonlar va texnologiyalar egiluvchan bo'lishi hamda tez qayta tashkil etish imkoniyati mavjudligini taqozo etadi;

- mehnat bozorida yosh mutaxassislarni sobitqadamlik bilan nomarkazlashtirilgan holda ish bilan ta'minlashga qaratilgan tamoyil. Mazkur

tamoyil foydalanuvchilar bilan vositachilar o'rtasida aloqalar o'rnatish hamda ularni axborotlar bilan ta'minlashni ko'zda tutadi;

– ilmiy-pedagogik tadqiqotlar va prognozlarni bozor kon'yunkturasini hisobga olgan holda olib borish tamoyili.

Yoshlar mehnat bozorini tadqiq etish uning umumiy tarkibi hamda turli subyektlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu holda yoshlar mehnat bozorini infologik model sifatida tasavvur etish mumkin. Infologik modelni yaratish yoshlar mehnat bozori barcha subyektlari hamda ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka aniqlik kiritishni talab etadi. Mazkur aloqadorlik miqdor ko'rsatkichlari – model barcha elementlari o'rtasidagi oqimlar ko'lamlari bilan uzviy bog'liqdir.

Bu holda mintaqaviy yoshlar mehnat bozoriga har yili kirib keladigan o'rta maxsus va oliy ma'lumotli mutaxassislarni (Q_{yomm}), fikrimizcha, quyidagicha aniqlash mumkin:

$$Q^n_{mq} = (Q_k + Q_l) - [Q^n_{mq} * (1 - K_t)] - (Q_{ok} + Q_h) + Q_{ob} + Q_{ht} - Q_o = Q_{yomm}, \quad (3.1.)$$

Yoshlarni kasbga yo'naltirishda ular hohish-niyatlari bilan bir qatorda mehnat bozori va ish bilan bandlikdagi haqiqiy ahvolni to'la hisobga olish juda muhimdir. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitlarida raqobatning keskinlashishi qator korxonlarning bankrotlikka uchrashi yoki ishlab chiqarishni qisqartirishga olib kelmoqda. Buning oqibatida ularda ish bilan band bo'lgan ishchi-xizmatchilar qisqartirilmoqda yoki to'liq bo'lmagan ish haftasida ishlashga o'tkazilyapti, majburiy, ish haqi to'lanmaydigan ta'tillarga chiqarib yuborilmoqda. Ayni paytda yoshlarning anchagina qismida ayrim ixtisosliklarning nufuzli, mehnat bozorida talab kattaligi to'g'risidagi soxta tasavvurlari kuchligiligicha qolmoqda. Mazkur omillarni hisobga olmaslik yoshlarni kasbga yo'naltirish sohasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlar samarasini keskin kamaytirib yubormoqda.

Yuqoridagilarni xulosa qilgan holda Samarqand viloyatida yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlarini tubdan takomillashtirish zarurligini alohida ta'kidlamog'chimiz. Eng avvalo zamonaviy axborot texnologiyalari, mintaqaviy infratuzilmalar doimiy monitoringiga asoslangan axborot tizimini yaratish kerak. Mazkur tizim mavjud yoshlarni ish o'rnolari (doimiy va vaqtinchalik), mehnat bozorining ahvoli, yoshlar uchun kafolatli ish joylari, kasblarga, shu jumladan qo'shimcha hunarlarga o'qitish kurslari, shaxsiy tadbirkorlik faoliyatini boshlash imkoniyatlari va boshqa zarur, tezkor axborot bilan muttasil ta'minlab borishi darkor.

Yoshlarning mintaqaviy mehnat bozori samarali faoliyat olib boishidan birgina ish beruvchilar, bu yerdan o'zlari uchun munosib ish o'zni topishga harakat qilayotgan yigit-qizlarga emas mahalliy hokimiyat va mehnat organlari, boshqa manfaatdor tashkilotlar, jamoat birlashmalari ham manfaatdorlar.

Shuni hisobga olgan holda, fikrimizcha, "2006-2010 yillarda kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash xududiy dasturi" doirasida viloyat tuman va shaharlari hokimliklari, ta'lim muassasalari, ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar, Savdo-sanoat palatasining xududiy bo'limlari, fermer xo'jaliklari uyushmalari, kasaba uyushmalari qo'mitalari, "Kamolot" ijtimoiy harakati xududiy tashkilotlari, ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy hamkorlik shartnomasi imzolash hamda uning ijrosini ta'minlash yuzasidan ta'sirchan choralar ko'rish kerak.

Yoshlarni kasbga yo'naltirish tizimida ularda tadbirkorlik tashabbusini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilishi va izchillik bilan amaliyotga joriy etilishi juda muhimdir. Hozir mahalliy mehnat organlari, ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar asosan mehnat yarmarakalari orqali yoshlarni mavjud ish o'rnalaridan xabardor qilish bilan chegaralanmoqdalar.

Yoshlarni kasbga yo'naltirishda ularga mehnat bozoridagi ish kuchiga haqiqiy talabni qunt bilan tushuntirish talab etiladi. Hozir esa talaba yoshlarda, ayniqsa umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida huquqshunoslik, moliya-

iqtisodiyot, ijodiy faoliyat bilan bog'liq (adib, jurnalist, rassom, dizaynchi va hokazolar) ixtisosliklar nafaqat jamiyatda o'ta nufuzligi, ayni vaqtda mehnat bozorida ularga talab kattaligi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlar keyinchalik ularning mehnat faoliyatiga kirishishda tanglik holatigacha olib borishi mumkin.

Hozirgi vaqtda ham yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlari asosan ta'lim muassasalari tomonidan eski qolipda olib borilishi sababli, mustaqil mehnat faoliyatini boshlayotganlar aksariyat hollarda ota-onalari, o'qituvchilari va tanish-bilishlari maslahatlari bo'yicha qaror qabul qilmoqdalar. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining tobora rivojlanayotganligi birgina viloyat, tuman va shaharlar miqyosida emas, balki har bir ta'lim muassasada ilmiy asoslangan kasbiy maslahatlar hamda kasbiy saralash xizmatlarini yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

3.2. Yoshlar mehnat bozorida oqilona ish bilan bandlikni ta'minlashni takomillashtirish yo'llari

Bugungi kunda respublikamiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri yoshlar ishchi kuchining yuqori ish bilan bandligiga erishishni samarali oqilona shakllantirishdir.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligi va o'sishi, yalpi ishchi kuchining ish bilan bandligini, ishsizlik va uning darajasi, baholarning o'sishi, ya'ni, inflyasiya va boshqa jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning ijobiy yoki salbiy ta'siri ostida o'zgarib turadi.

Bu masala fuqarolarning manfaatlari, yashashi, rivojlanishi va ertangi kuni bilan bog'liq. Respublikamizdagi mavjud mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, unga bo'lgan talab va ehtiyojga qarab foydalanish, bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan hozirgi davrda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosini tashkil etadi.

Davlatning faol ta'sir ko'rsatish siyosati yoshlar mehnat bozorlari holatidan kelib chiqadi. Agar hududda ishchi kuchi ortiqchaligi (profisit) ro'y berib, taklif hajmi talabdan yuqori bo'lsa, u holda davlat ishchi kuchi taklifini kamaytirish va

unga bo'lgan talabni ko'paytirishni rag'batlantirish siyosatini yuritadi. Aksincha, agar hududda ishchi kuchi tanqisligi (defisit) kuzatilsa, u holda davlat ishchi kuchi taklifini ko'paytirish va unga bo'lgan talabni kamaytirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni belgilaydi.

Davlat tomonidan qo'llaniladigan tartibga soluvchilarning (iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy va huquqiy) o'rni mehnat bozorida ziddiyatlarni yumshatish, ishchi kuchiga talab va taklif konyukturasidagi nomuvozanatlikdan va ularni inqiroziy buzilish oqibatlaridan (yalpi ishsizlikning paydo bo'lishi, ijtimoiy xo'jalikda ishga joylashishga imkoniyat yo'qligi, daromadlarning pasayishi va boshqalardan) ogohlantirish yo'li bilan belgilanadi. Ba'zida bozor munosabatlarining ijtimoiy oqibatlari natijasida shunday sharoitlar shakllanadiki, unda qishloq aholisi bir qismining mehnat qilish va daromad olish huquqlariga ega bo'lishida jiddiy qiyinchiliklar vujudga kelishi oqibatida turmush darajasi pasayadi. Iqtisodiy tartibga soluvchilar (soliqlar, mehnat haqi, moliya-kredit vositalari, investisiyalarning jalb etilishi, ish bilan bandlikka ko'maklashish jamg'armasi va boshqalar) ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratishga qaratilgan, unda qishloq ishchi kuchining harakati talab va taklifga muvofiq har bir mazkur davrda qo'yilgan maqsadlar va vazifalarni amalga oshirishda sodir bo'ladi. Tartibga soluvchilarning eng muhim yo'nalishi shundan iboratki, ularning majmuasi orqali mehnat bozorida nisbiy muvozanatga erishish mumkin.

Mamlakat mehnat potentsialidan samarali foydalanish va ishsizlikni bartaraf etishga qaratilgan davlat siyosatining yana bir yo'shnalishlaridan biri bu – «Aholini ish bilan ta'minlash» hududiy dasturlarining amalga oshirilishidir. Mazkur dastur Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va vilotlar miqyosida ishlab chiqilib, unda iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratish parametrlari belgilanadi.

Yuqori bo'limlarda ta'kidlanganidek, ish o'rinlarining qisqarishi milliy iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarning amalga oshirilishi, modernizasiyalash va liberallashtirish jarayonlarining jadallashuvi hamda mulkchilik shakllarining o'zgarishi natijasida kuzatilgan bo'lsa, shuningdek, bu holatga ishlab chiqarish

korxonalarining bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga javob bera olmasligi va raqobat kurashida mag'lubiyatga uchrashi oqibatida bankrot deb e'lon qilinishi ham sabab bo'lgan.

Mazkur hududiy dasturlarni amalga oshirishda ish o'rinlari strukturasi uchunlik ham e'tibor qaratilmayapti. Ya'ni bunda miqdor ko'rsatkichiga birinchi darajali urg'u berilib, yaratilayotgan ish o'rinlarining sifat jihatlari e'tibordan chetda qolmoqda. Bunda faqatgina dastur ko'rsatkichlari bajarilsa bo'ldi, qolgani ikkinchi darajali tamoyilida ish ko'rilmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda "oqilona ish bilan bandlik" tushunchasi haqida turli xil nuqtai nazarlar mavjud. Rus iqtisodchi olimi A.B.Naumovning fikricha "oqilona ish bilan bandlik" tushunchasi samarali to'liq ish bilan bandlik ijtimoiy ishlab chiqarish sohqsida mehnatga qobiliyatli aholining ish joylariga talabini butunlay qanoatlantirganligini bildiradi. Agar aholining ishchi joylariga talabi to'la qanoatlantirilsa va ishchi kuchidan eng katta samara bilan foydalanilsa, unda aholi ish bilan bandligi oqilona bo'ladi.¹ Ukraina iqtisodchisi V.F.Onihyenko ham xuddi shunday nuqtai nazarni qo'llab – quvvatlashni ta'kidlaydiki, "oqilona ish bilan bandlik to'liq va samarali ish bilan bandlikning birlashmasidir. "Oqilona ish bilan bandlik o'z ichiga qo'yidagilarni oladi: 1) aholining ijtimoiy foydali mehnatga ehtiyojini to'liq qanoatlantirish; 2) ishlab chiqarish vositalari va jonli mexnatni samarali muvofiqlashtirish; 3) ijtimoiy mehnat unumdorligining eng katta imkondagi darajasi va uning samaradorligi; 4) ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining ma'lum darajasida aholining moddiy, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini imkoni boricha to'liqroq qanoatlantirish"²

Yoshlar mehnat bozorining rivojlanish sharoitida bu olimlarning oqilona ish bilan bandlik – mehnatga qobiliyatli ag'olining doimiy ish joylariga talabini to'liq qondiradi, degan fikrlariga qo'shilish qiyin. Mehnat bozori yoppasiga bandlikni

¹ Наумов А.Б. Некоторые проблемы формирования рациональной занятости населения. Механизма обеспечения рациональной занятости и совершенствования распределительных отношений. – М.: ИЭ и П НТП, 2002. С. 10-20.

² Онищенко В.Ф. Рациональная занятость: методология региональных исследований. – Киев: Наукова Думка, 2001. -208 с.

ta'minlaydi va raqobat asosida soni o'zgarib turgan "doimiy" ish joylarini kafolatlamaydi.

Sh.R. Xolmo'minovning fikricha, aholining oqilona ish bilan bandligi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishishni bildiradi. Bunday holda ishsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin (tabiiy) darajasi vujudga keladi. Bunday muvozanat ish beruvchilar va "Mehnatga qobiliyati" kishilarining iqtisodiy manfaatlarini eng muqobil darajada amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda ishchi kuchiga kasb-malakali tayyorgarligi bo'yicha mos narxlar belgilanadi. Xuddi shular tufayli, aholining oqilona ish bilan bandligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ishchi kuchining qiymati asosida "mehnat qilish qobiliyatini bozorda sotish uchun taklif qilganlarning turmush darajasi shakllanishi ham ta'minlanadi.

Iqtisodiyot va insonning ehtiyojlariga to'g'ri kelishi darajasiga qarab oqilona, samarali mahsuldor va eng maqbul ish bilan bandlik darajalariga ajratiladi.

Yoshlarning oqilona ish bilan bandlik agregasiyalangan ijtimoiy – iqtisodiy tushunchadir. Uning mazmuni bir necha shunday blokni o'z ichiga oladiki, ularning mehnat bozoridagi bor – yo'qligiga qarab ish bilan bandlik oqilona ekanligi yoki oqilona emasligini aniqlash mumkin. Bular, jamiyat, ijtimoiy guruh va ayrim shaxsning manfaatlarini hisobga olish; jamiyatning iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlanishni ta'minlash; jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining o'zgarishlariga hozirjavoblik kabilardir. Oqilona ish bilan bandlikni iqtisodiy faol aholi umumiy sonida mahsuldor ish bilan bandlar ulushi tavsiflanadi. Ish bilan bandlikning oqilona ish bilan bandlik kabi shakli mavjudligini barcha olimlar ham tan olavermaydi. Ko'pchilik faqat to'liq va samarali ish bilan bandlikni ajratishga moyildir. Holbuki, oqilona ish bilan bandlik tasniflash elementi bo'lishi lozim va avvalo, shuning uchun lozimki, shu bilan bandlikni samarali deb qator yillar o'tganidan keyin, uzoq istiqboldagina baholash mumkin, mehnat sohasida va ish bilan bandlik borasida jarayonlarni boshqarish uchun esa qisqa va o'rta muddatli istiqboldagi ish bilan bandlik holati baholanishi zarur. Bunda oqilona ish bilan

bandlikni samarali ish bilan bandlikka qarama-qarshi qo'ymaslik kerak. Oqilona ish bilan bandlik – samarali ish bilan bandlikning shart-sharoiti, unga erishishdagi pillapoyadir. Oqilona ish bilan bandliksiz samarali ish bilan bandlik ham bo'lmaydi.

Yuqorida taklif etilgan tushuncha nuqtai nazaridan qaraganda respublikamizda aholining oqilona ish bilan bandligini shakllanishiga hali to'la erishilgani yo'q. Bunga qo'yidagi sabablar asosiy to'siq bo'lmoqda: davlat mulkini xususiylashtirish samaradorligining past darajasi; iqtisodiyotda tubdan tarkibiy islohotlarni va ishlovchilarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdan ozod bo'lishning sekinligi; mehnat haqi uning yakuniy natijalaridan uzilib qolish; ish joylarining past sifatli moddiy-texnik jixozlar bilan ta'minlanishi; mehnatga qobiliyatli o'smirlar, kshp bolalik ayollar, pensionerlar va nogironlar faoliyatining yetarlicha rag'batlantirilmaganligi; ishchi kuchi taklifini unga bo'dgan talabga nisbatan ko'proq o'sayotganligi; bo'sh ish joylari haqida axborotlarning kamligi va mehnat bozorining samarali tartibga solish mexanizmi takomillashmaganligi. Ular ichida davlat mulkini xususiylashtirish va xalq xo'jaligi tarmoqlarini tarkibiy islohot qilish yetakchi o'rin egallaydi. Bu jarayonlarni amalga oshirish ko'proq rasmiy xarakterga ega bo'lib qolmoqda.

Vaholanki, ijara, hissadorlik, xususiy va qo'shma korxonalarni tashkil qilish aholining oqilona ish bilan bandligini shakllanishiga ijobiy ta'sir qilib, ishchi kuchiga talabning oshishiga va uni taklifini kamayishiga olib kelishi mumkin.

Ammo respublika qishloq joylarida ishchi kuchiga talabning kamayishi va uning taklifi oshishi kuzatilmoqda. Noqishloq xo'jaligida ish joylari soni yetarli emasligi va ishlovchilarning kasbiy bilimlari pastligi respublikaning barcha qishloq hududlarida mavjud bo'lgan ishchi kuchiga va taklif o'rtasidagi nomutanosiblik va ishsizlikning asosiy sabablaridan hisoblanadi.

Texnik vositalardan samarasiz foydalanishi va ishlab chiqarish hamda mehnatni tashkil qilishda ilg'or usullarni sekinlik bilan tadbqiq etish ishlab chiqarishda meyordan yuqori jonli mehnat sarflanishiga va yashirin ish bilan bandlik ortishiga olib keladi. Tadqiqot ishlari ko'rsatadiki, uning hozirgi mavjud

texnik jihozlanish darajasida ham kamroq sonli xodimlar bilan yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ishchi kuchining ortiqcha qismidan ijtimoiy ishlab chiqarishning unga talab bo'lgan tarmoqlari sohasida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mehnat haqi uning yakuniy natijalaridan uzilib qolishi va ishlovchilarning kasbiy bilimlari va ish joylarining unumli texnika bilan ta'minlanishini pastligi nafaqat ishlab chiqarish korxonalari quvvatlaridan samarasiz foydalanishga, balki ichki va tashqi bozorlarning talablariga to'liq mos kelmaydigan past sifatli tovarlarni ishlab chiqarishga olib keladi. Natijada ko'pgina ishchi xodimlarning mehnati ijtimoiy tan olinmaydi (amalda mehnat haqi orqali tan olingan bo'lsa ham) va xalq xo'jaligi nuqtai nazaridan ularning ish bilan bandligi iqtisodiy mazmunga ega bo'lmaydi. Mehnat natijasi ijtimoiy tan olingan ish bilan bandlikni oqilona deb hisoblash mumkin.

Vakant lavozimlarni va ish joylarini mavjudligi haqidagi ishonchli ahborotlarning kamligi – ish bilan band bo'lmagan aholini ishga joylashtirishni qiyinlashtiradi.

Bularning barchasi ish bilan bandlikni tartibga solishning samarali mexanizmi mavjud emasligi aholining oqilona ish bilan bandligini shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mavjud mexanizm esa oqilona ish bilan bandlik shakllanishining asosiy shart-sharoitlari to'liq hisobga olmaydi. Takomillashtirilgan yangi mexanizm esa qo'yidagi asosiy shart-sharoitlarning ta'sirini tartibga solishi lozim: ishchi kuchiga talabning oshishi va unga taklifning kamayishi; yollanma ish kuchiga mehnat haqini (narxni) eng past miqdorini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol byudjetidan kam bo'lmagan holda belgilash; mehnatga qobiliyatli o'smirlar, pensionerlar, ko'p bolalik ayollar va nogironlar ish bilan bandligini oshirishni rag'batlantirish; ishsizlarning malakasi, raqobat qobiliyati va eksportabelligini oshirish; ish bilan bandlik xizmati infrastrukturasining samarali rivojlanishni ta'minlash va boshqalar.

yoshlarning oqilona ish bilan bandligini shakllanishini muhim shart-sharoitlari, mashg'ulotlar turi, ish va yashash joyini erkin tanlash, aholi

mobilligining turli ma'muriy cheklanishlarini (propiska, viza, ishdan asossiz bo'shatishni man qilish va ushlab qolishlar) bekor qilish, mehnat haqidagi qonunlarga qat'i rioya qilgan holda ishga joylashishi kafolatini berishdan iborat bo'ladi. Majburiy mehnat qilishdan voz kechish har bir shaxsning ijtimoiy ishlab chiqarishda ishlash yoki ishlamaslikni haqiqiy tanlashni bildiradi. Bunda mehnat qilishning huquqiy amalga oshirilishi, shubhasiz xodimlarni mehnat bozorida yollanishning eng yaxshi sharoitlari uchun musobaqalashuvlarini kuzda tutadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan yoshlarni oqilona ish bilan bandligi ishchi kuchidan shunday foydalanishni aks ettiradiki, u yalpi ichki mahsulot va mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlaydi va ko'p mulkchilikning shakllari, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil qilishning samarali uslublarini qo'llanish soqalarini kengayishiga ko'maklashadi.

Bu ortiqcha ishchi kuchining ozod bo'lishiga olib keladiki, u yollangan ishlovchilarni qaytadan taqsimlash va mehnat migrasiyasi kengayishi jarayonining kuchayishiga yordam beradi. Shu bilan birga shunday vaziyat yuzaga keladiki, unda ishlab chiqarishdan ozod bo'lgan ishlovchilarning bir qismini mehnatga va daromadlarga o'z huquqini amalga oshirish sharoiti yomonlashadi. Bunday holda ishsizlik paydo bo'ladi.

Mehnatga qobiliyatli yoshlarning oqilona ish bilan bandligini shakllantirishning asosiy demografik manbalaridan biri – uning iqtisodiy faol qismini kengayishidan iborat. Aholining iqtisodiy faol qismi o'z ichiga mulkchilikning turli xil tashkiliy – huquqiy va iqtisodiy shakllariga ega korxonalarda ish bilan band bo'lgan yollanma xodimlarni, mustaqil shaxslar va tadbirkorlarni, ish qidirayotgan (shu jumladan ishsiz) mehnatga qobiliyatli, ish bilan band bo'lmagan aholini qamrab oladi. Bularning barchasi mehnat salohiyatini tashkil qiladi. U mehnatga qobiliyatli iqtisodiy faol bo'lmagan qismi – ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlar, harbiy xizmatda bo'lganlar va subyektiv – obyektiv sabablarga ko'ra ish bilan band bo'lmagan yoshlar hisobiga yangilanadi va to'ldiriladi.

So'nggi paytlarda yoshlar oqilona bo'lmagan ish bilan bandlikning asosiy sabablardan biri – ish joylari va mehnat resurslari o'rtasidagi mutanosiblikning mavjudligi hisoblanar edi. Ammo hozirgi vaqtda bu muammoning boshqa jihat – ishchi kuchiga talabni uning taklifiga mos kelmasligi muhim, chunki hozirgi xududiy safarbarlik, propiska bilan to'xtatib turilgan, uy joy bozori yaxshi rivojlangan, xududlar bo'yicha turmush darajasi tabaqalashtirilgan vaziyatda tarkibiy mos kelmasliklar – boshqa muammolarni vujudga kelishiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, bozor munosabatlarining vujudga kelishi va ishsizlik faktini uning barcha ko'rinishlarida tan olinishi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish bo'yicha masalani hal qilishni ko'zda tutadi. Ammo shunday bo'lishi kerakki, mehnat har bir ish joyida iqtisodiy maqsadga muvofiq bo'lsin, ya'ni aholining ish bilan bandligini oqilona tuzilishiga erishilsin.

Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilar o'rtasida kooperasiya aloqalarining mustahkamlanishi oila byudjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammoni hal etadi, ish bilan band bo'lmagan aholi sonini keskin qisqartirish va uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini beradi. Ayni paytda kasanachilarga ish stajini hisoblash, pensiya va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar tayinlash huquqi ta'minlanadi.

Sanoat korxonalarining kasanachilarga zarur xom ashyo va materiallarni yetkazib berish asosida oilaviy pudratni rivojlantirish fuqarolarga vaqtdan unumli foydalanish, shu bilan birga, past rentabelli va ko'p mehnat sarfi talab qiladigan mahsulotlarning ayrim turlarini uy sharoitida ishlab chiqarishni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu esa o'z navbatida, yirik korxonalar ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ish bilan band bo'lmagan aholini ishlab chiqarishga jalb etish, oila byudjeti daromadlarini ko'paytirish, uy mehnatidan foydalangan holda butlovchi qismlar, tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish orqali yirik sanoat korxonalarining faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida 2006 yil 5 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yirik sanoat korxonalari bilan

kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperasiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-3706 – sonli Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra mamlakatimizda kasanachilik mehnatini rivojlantirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etildi:

- mehnat qonunchiligini takomillashtirish, kasanachilar ijtimoiy himoyasi va mehnati muhofazasini ta'minlashni inobatga olgan holda aholini uy mehnati faoliyatiga keng jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish;

- sanoat korxonalari bilan ularning buyurtmalari asosida uyda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, birinchi navbatda, sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish imkonini beradigan tikuvchilik, attorlik, ipakchilik, qayta ishlash, mebel, elektron sanoatida, shuningdek telekommunikasiya, servis va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida kasanachilik bilan shug'ullanayotgan fuqarolar o'rtasida kooperasiyani rivojlantirish;

- korxonalarning buyurtmalari asosida uyda ishlayotgan fuqarolarga buyurtmachilar tomonidan xomashyo, materiallar va yarimfabrikatlarni yetkazib berish hamda buyurtma asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishni kafolatlashda barqaror sharoitlar yaratish.

Ish bilan bandlikning ushbu shaklini rag'batlantirish maqsadida bir qancha imtiyoz va yengilliklar ko'zda tutilgan:

- tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha kasanachilarga buyurtma beradigan korxonalar 2006 yilning 1 fevralidan boshlab besh yil muddatga, mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga to'lanadigan mablag'larga teng miqdorda, mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lashdan ozod qilinadi;

- korxona tomonidan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq kasanachilarga korxona buyurtmasi bo'yicha ishlarni bajarish uchun tekin foydalanishga berilgan asbob-uskuna, jihozlar va inventarlar ulardan foydalanish davrida mulk solig'idan ozod etiladi;

- kasanachilik amalga oshiriladigan turarjoy binolarini noturarjoy binolar toifasiga o'tkazish talab qilinmaydi;

- kasanachilar korxonalarining ishlab chiqarish texnologiyasiga to'liq amal qilgan taqdirda, uy sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni qo'shimcha sertifikatlash va standartlash talab etilmaydi;

- mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan korxonalarga kasanachilar tomonidan mahsulotlarning qaytarilishi ulgurji savdo hisoblanmaydi va lisenziyalanmaydi;

- kasanachilik mehnati bilan shug'ullanadigan shaxslar mehnat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarish uchun iste'mol qilinadigan kommunal xizmatlarga aholi uchun qo'llaniladigan tariflar bo'yicha haq to'laydilar.

Farmonda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish korxonalari va aholi o'rtasidagi mehnat kooperasiyasini rivojlantirish maqsadida hududiy dasturlar ishlab chiqilib, ularga ko'ra 2006 yilda respublika bo'yicha jami 60 mingta kasanachilik o'rinlari yaratish ko'zda tutilgan. O'tgan yil yakunlariga ko'ra mamlakatimizning 700 ga yaqin yirik sanoat korxonalarida 60 mingdan ziyod (shulardan 70% qishloq joylarda) kasanachilik o'rinlari yaratildi. Buning natijasida esa ishsiz yurgan xotin-qizlar (jumladan, yosh bolali ayollar), uy bekalari, yoshlar, nogironlar va mehnat bozorida erkin raqobat qilish imkoniyati cheklangan shaxslar ish bilan ta'minlandi va mehnat daromadiga ega bo'ldi. Shuningdek, kasanachilik mehnati ularni jamiyatning faol kishisiga ham aylantirdi.

Garchi kasanachilik mehnatini rivojlantirish bo'yicha respublika dastur ko'rsatkichlari to'laligicha bajarilgan bo'lsada, bu borada bir qancha muammolar ham ko'zga tashlanmoqda. Mazkur chora-tadbirlarga mingdan ortiq yirik sanoat korxonalari jalb etish ko'zda tutilgan bo'lsa-da, amalda ularning barchasida ham kasanachilar mehnatidan foydalanilmagan. Respublikamizning sanoati rivojlangan hududlari hisoblangan Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlari hamda Toshkent shahrining ko'pgina korxonalarida yetarlicha imkoniyatlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, bu boradagi ishlar sust olib borilgan va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlariga birorta ham kasanachi jalb etilmagan. Shuningdek, ba'zi sanoat korxonalarida kasanachilar bilan mehnat shartnomalari tuzilgan bo'lishiga qaramay, amalda mahsulotlar ishlab chiqarish va

xizmatlar ko'rsatish uchun ular zaruriy vosita va xom ashyolar bilan ta'minlanmagan. Natijada esa kasanachilarning hanch qanday mehnat daromadlariga ega bo'lmaslik holati kuzatilgan.

Kasanachilik mehnatini rivojlantirish borasida mavjud salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasidagi kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni tamoyillarini transport, aloqa, qurilish va qurilish industriyasi tarmoqlarining yirik korxonalariga hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kichik sanoat korxonalariga ham qo'llash belgilab qo'yildi. Bu esa o'z navbatida aholi bandligi va daromad manbaining yangi shakli hisoblangan kasanachilik mehnatining rivojlanishi va bu borada mavjud salohiyatdan samalari foydalanishga olib keladi.

Yoshlar mehnat bozorida davlatning amalga oshiradigan siyosatlaridan biri – bu ijtimoiy himoya siyosatidir. Unga ko'ra davlat mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutadi. Ya'ni, aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish maqsadida korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 1 dekabrda 504-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq fuqarolarning ushbu toifasiga quyidagilar kiradi:

- o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg'iz ota, yolg'iz onalar hamda ko'p bolali ota-onalar;
- ta'lim muassasalarini tamomlagan yoshlar, ular ta'lim muassasasini tamomlagandan keyin bir yil davomida;

- O'zbekiston Respublikasi Kurolli Kuchlaridan, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Favqulodda vaziyatlar vazirligi qo'shinlaridan bo'shatilganlar;

- nogironlar va pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar;
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar.

Nogironlar uchun ish joylarining eng kam miqdori xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soni kamida 34 kishini tashkil etadigan korxonalar uchun, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari uchun esa ish joylarining eng kam miqdori xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soni 100 va undan ortiq kishini tashkil etadigan korxonalar uchun belgilanadi.

Shunday qilib, ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishilgan, yoshlarning oqilona ish bilan bandligi shakllangan, ishsizlikning yo'l qo'yiladigan darajasigacha kamaygan, mulkchilikning turli shakllari rivojlangan, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar yuzaga kelgan, yashash va mehnat qilish joylari erkin ta'minlangan, mahalliy kadrlar safarbarligining har qanday ma'muriy cheklanishlari bekor qilingan, mehnat haqidagi qonunlarga muvofiq ishga joylashish kafolatlari mavjud bo'lgan, eng kam ish haqi darajasini minimal iste'mol byudjetigacha oshirishga muvaffaq bo'lingan va mehnat daromadlaridan soliqlar keskin qisqartirilgan sharoitlardagina mehnat bozori samarali shakllanadi va rivojlanadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Iqtisodiyotni modernizasiya qilish davrida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati faqat odamlarning manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mehnatga yaroqli yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan va o'ziga xos yoshlar tarkibiga ega bo'lgan bizning respublikada ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi.

2. Yoshlarni ish bilan ta'minlash uning takror ishlab chiqarishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi jamiyatning kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy jihatdan qo'llab - quvvatlash uchun sarf qiladigan chiqimlar yoshlarni ish bilan ta'minlanishiga bog'liqdir. Ish bilan bandlik inson ijtimoiy kamolatining eng muhim tomonlaridan birini ochib beradiki, bu uning mehnat sohasidagi va mehnat bilan bog'liq bo'lgan etiyojlarini qondirishga aloqadordir.

3. Hozirgi paytda bozor munosabatlari talabiga mos ravishda mehnat sifati o'sayotganligi an'anasi ko'zga chalinmoqda. Tashabbuskor, layoqatli mehnatkashlar guruhleri, o'z navbatida, mehnat sharoitiga o'z talablarini qo'ymoqdalar. Albatta, bu jarayon ko'ngildagidek kechayapti, deb bo'lmaydi. Bunga avvalo bizning bugungi iqtisodimizning o'tish davrida ekanligi o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ikkinchidan esa iqtisodiy islohotlar o'z yo'lida ma'lum qiyinchiliklarga ham uchramoqda. Shu boisdan ham aholini ish bilan band qilish muammosini ko'p yillardan buyon bozor iqtisodi sharoitida yashayotgan ayrim davlatlar tajribasini ko'chirib olgan holda amaliyotga tatbiq etib emas, o'zimizdagi mavjud voqeyelikni chuqur tahlil qilgan va yetarli saboqlar chiqargan holda yechish joiz.

4. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmning muhim vositalaridan biri bo'lgan o'smirlarni vaqtincha ishga joylashtirishni tashkil qilish davlat ijroiylar hokimiyati idoralari, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash idoralari, balog'atga yetganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, yoshlar ishlari bo'yicha

ko'mitalarning bevosita ishtirokida o'tkazilishi va ish beruvchilar, hamda kasaba uyushmalar, yoshlar, bolalar va boshqa jamoa tashkilotlari va birlashmalari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi kerak.

5. Samarqand viloyatida jami ishchi kuchiga taklif 148570 kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2007 yilga nisbatan 150,9 %ga o'sgan. Shundan, ilk bor ish qidirayotgan yoshlar 2011 yilda 66894 kishini tashkil etib, mazkur ko'rsatkich tahlil etilayotgan yillar ichida 187,3 %ga o'sgan. Shuningdek, qishloq joylarda ilk bor ish qidirayotgan yoshlar soni 2011 yilda 56726 kishidan iborat bo'lgan hamda 2007 yilga nisbatan 188,0%ga oshgan. Keyingi yillarda XTBYularning kunduzgi bo'limini bitiruvchilari hissasi viloyat bo'yicha kamayish (87,5 %) tendensiyasiga, O'MKHK kunduzgi bo'lim bitiruvchilari hissasi o'sib borish (163,9 %) tendensiyasiga ega bo'lgan.

6. Mamlakatimizning yoshlar mehnat bozorida talab va taklif muvozanatini ta'minlash maqsadida ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini rag'batlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish;
- yosh tadbirkorlarga moliya-kredit va xom-ashyo resurslarini olishlarida yordam berish tizimini shakllantirish;
- yosh tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish;
- ularning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi ishtirokini kengaytirishni qo'llab-quvvatlash;
- yosh tadbirkorlarni bozor konyunkturasi, xom-ashyo va moliyaviy resurslar bozori bo'yicha axborot bilan ta'minlovchi infratuzilmani shakllantirish;
- yosh tadbirkorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish va boshqalar.

7. Yoshlarning ish bilan bandligini oshirishda oqilona ish bilan bandlik shakllanishining barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida boyor muvozanatiga erishish; ish joylarini ko'paytirish; iqtisodiy faol aholining mehnatda

ishtirokini oshirish; mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlash; aholining mehnat daromadlarini ko'paytirish; ishsizlikni kamaytirish va boshqalar.

8. Iqtisodiyot, ilm-fan jadal sur'atlarda rivojlanayotgan hozirgi vaqtda kasb-korlar, ixtisosliklar beqiyos. Yoshlar uchun ular orasidan o'z qobiliyati, iste'dodi, hohish-istaklariga mosini topish juda murakkab. Bu muammoni hal etishda kasblar to'g'risida xabardorlik qo'l keladi. Ana shu axborotga ehtiyoj hamda ko'pincha kadrlar tayyorlash tarkibi bilan muayyan mutaxassislariga bo'lgan talab o'rtasida mavjud bo'ladigan nomutanosiblik kasbga yo'naltirish tizimini yo'lga qo'yish zaruratini tug'diradi.

Kasbga yo'naltirish, fikrimizcha, shaxsning muayyan kasb egasi bo'lishga ehtiyoji hamda jamiyatning ijtimoiy-kasbiy tarkibni ta'minlashga ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimidir.

9. Yoshlarni kasbga yo'naltirish tizimida ularda tadbirkorlik tashabbusini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilishi va izchillik bilan amaliyotga joriy etilishi juda muhimdir. Hozir mahalliy mehnat organlari, ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar asosan mehnat yarmarakalari orqali yoshlarni mavjud ish o'rinlaridan xabardor qilish bilan chegaralanmoqdalar. Yoshlarni kasbga yo'naltirishda ularga mehnat bozoridagi ish kuchiga haqiqiy talabni qunt bilan tushuntirish talab etiladi. Hozir esa talaba yoshlarda, ayniqsa umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida huquqshunoslik, moliya-iqtisodiyot, ijodiy faoliyat bilan bog'liq (adib, jurnalist, rassom, dizayner va hokazolar) ixtisosliklar nafaqat jamiyatda o'ta nufuzligi, ayni vaqtda mehnat bozorida ularga talab kattaligi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlar keyinchalik ularning mehnat faoliyatiga kirishishda tanglik holatigacha olib borishi mumkin.

10. Yoshlar mehnat bozorida davlatning amalga oshiradigan siyosatlaridan biri – bu ijtimoiy himoya siyosatidir. Unga ko'ra davlat mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutadi. Ya'ni, aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish maqsadida korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga

ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

1.O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2010.

1.2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – T.: “Iqtisodiyot huquq dunyosi”, 2010.

1.3. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahrir). –T.: Adolat, 1998.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 20-son, 215-modda.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli “Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar to'g'risida”gi Qarori. “Xalq so'zi” gazetasi, 2009 yil 23 yanvar.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2011 yil 4 apreldagi Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 aprel.

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4354-sonli Farmoni.

2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 maydagi "Tadbirkorlik subyektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4296-sonli Farmoni. // Xalq so'zi, 2011 yil 5 may.

2.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanadatakomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2011 yil 12 maydagi Qarori. // Xalq so'zi, 2011 yil 13 may.

2.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi 2011 yil 7 fevraldagi Qarori.

2.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 11 martdagi PQ-1501-sonli Qarori.

2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida"gi 1455-sonli Qarori.

2.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida"gi 1668-sonli Qarori.

2.12.. Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperasiyani kengaytirishni rag'batlantirish choratadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 05.01.2006 yil.№PF3706.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

3.1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Nizomi.. "Xalq so'zi" gazetasi, 11.01.2010 yil.

3.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 apreldagi 104-sonli Qarori. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil 15son.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1.1. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.

1.2. I.A.Karimov. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009.

1.3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch.– T.: "Ma'naviyat", 2008.

1.4. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: "O'zbekiston", 2009.

1.5. I.A.Karimov. Mamlakatimizda demoraktik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.

1.6. I.A.Karimov. Demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: 19.T. O'zbekiston, 2011.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzalari

2.1. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).

2.2. Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar, №19 (4934).

2.3. Karimov I.A. Bizning yo'limiz — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzasi. – “Xalq so'zi” gazetasi.

2.4. Karimov I.A. «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq // Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral.

2.5. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar soni.

III. Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasida chop etilgan

1.1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.: “Mehnat” - 2009.

1.2. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. – T.: “O'qituvchi” NMIU, 2008.

1.3. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakiyeva I.A. “Mehnat iqtisodiyoti” – T.: TDIU, 2011.

1.4. Hayitov A.B., Adilova G.G., Arabov N.U. “Xorijda mehnatga haq to'lashni tashkil etish” - T.: TDIU, 2011.

1.5. Рынок труда: Учебное пособие. /Под общ.ред. Абдурахмонова К.Х., Одегова Ю.Г. – Т.: ТФРЕА, 2009.

1.6. Bakiyeva I.A. “Inson resurslari iqtisodiyoti” fani (O'quv qo'llanma) – T.: TDIU, 2011.

1.7. Abduramanov X.X. “Mehnat resurslari safarbarligi. O’quv qo’llanma. – T.: TDIU, 2011.

1.8. Xolmuminov Sh.R., Bakiyeva I.A. Mehgnat ko’rsatkichlari tahlili (o’quv qo’llanma) – T.: TDIU, 2009.

2. Rossiyada chop etilgan

2.1. Экономика и социология труда. Учебник. / Под. ред. А.Я.Кибанова. – М.: ИНФРА-М, 2010.

2.2. Волгин Н.А. Экономика труда: (социально-трудовые отношения) / Под ред. Н.Л. Волгина, Ю.Д. Одегова. -М.: «ЭКЗАМЕН», 2009

2.3. Кязимов К.Г. Рынок труда и занятость населения: Учеб. пособ.– М.: «Перспектива», 2005.

2.4. Мумладзе Р.Г. Экономика и социология труда: учебник / под общ ред Р.Г. Мумладзе. – 2-е изд., стер. - М.: КНОРУС, 2007.

2.5. Рофе А.И., Збышко Б.Г., Ишин В.В. Рынок труда, занятость населения, экономика ресурсов для труда: Учеб. пос. /Под ред. А. И. Рофе. -М: Изд-во «МИК», 1997.

2.6. Одегов Ю.Г. и др. Экономика труда: Учебник. В 2 т. Т. 1. – М.: «Алфа-Пресс», 2007.

2.7. Одегов Ю.Г. и др. Экономика труда: Учебник. В 2 т. Т. 2. – М.: «Алфа-Пресс», 2007.

2.8. Рынок труда: учебник / под ред. проф. Б.С. Буланова. Рынок труда: учебник / под ред. Б.С. Буланова и Н.А. Волгина. — 3-е изд., перераб. и доп. — М: «Экзамен», 2007

2.9. Экономика и социология труда: учебник./Под. Ред. Проф. А.Я.Кибанова. –М.: ИНФРА-М, 2007

2.10. Адамчук В.В. Экономика и социология труда/ В.В. Адамчук, О.В.Ромашов, М.Е.Сорокина- М: ЮНИТИ, 2001.

2.11. Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Избр произведения. – М.: Экономика, 1993.

2.12. Самуэлсон П. Экономика .– М.: НПО Алгон, 1992.

- 2.13. Эренберг. Р.Д., Смит Р.С. Современная экономика труда. Теория и государственная политика: Пер. с англ. - М: Изд-во МГУ, 1996.
- 2.14. Макконнелл К., Брю С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. Т. 2. – М.: Прогресс, 1992.
- 2.15. Маршалл А. Принципы политической экономии. – М.: Прогресс, 1983.
- 2.16. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. -М.: Наука, 1993.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Darslik va o'quv qo'llanmalar

- 1.1. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010.
- 1.2. Abdurahmonov Q.X., V.Imomov. O'zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. – T.: “Akademiya”, 2008.
- 1.3. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'lumotlar tarixi. – T.: “O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti”, 2005
- 1.4. Xolmo'minov Sh.R., Xomitov K.Z. Malakali agrar mehnat bozorining shakllanishi. – T.: “Fan”, 2003.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. – 2012.

2. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruza to'plamlari

- 2.1. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mehnat munosabatlarini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010.

3. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertasiyalar

1. Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanishi. 08.00.10. – “Aholishunoslik va mehnat iqtisodiyoti” ixtisosligi bo'yicha Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertasiyasi. – T.: 2008.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

- 5.1. “Xalq so'zi” gazetasi 2008-2011 yil sonlari.
- 5.2. “Bozor, pul, kredit” jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.3. O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.4. “Iqtisodiyot va ta'lim” jurnali 2008-2011 yil sonlari.
- 5.5. O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot va tahliliy sharh. 2008-2011 yil sonlari.
- 5.6. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2008-2011 yil sonlari.
- 5.7. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hisobotlari.
- 5.8. Samarqand viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh boshqarmasi hisobotlari.
- 5.9. Samarqand viloyat Statistika Bosh boshqarmasi hisobotlari.

VI. Internet saytlari

- <http://www.prezident.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining veb-sayti.
- <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi veb-sayti.
- <http://www.ceep.uz> - Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги хузуридаги самарали иқтисодий маркази расмий веб сайти.
- <http://www.anons.uz> – Новости Узбекистана.
- <http://www.e-graduate.ru> – Битирувчилар портали.
- <http://www.fundforum.uz> – Фонд Форум расмий сайти.

ILOVALAR

1-ilova
1-jadval

O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslari soni dinamikasi
(ming kishi hisobida)

Hududlar	Yillar					2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarish	
	2007	2008	2009	2010	2011	+, -	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	883,5	904,4	931,4	938,0	970,2	86,7	109,8
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1391,8	1433,5	1497,6	1536,0	1626,4	234,6	116,8
Buxoro	904,5	928,7	949,2	967,4	1013,4	108,9	112,0
Jizzax	582,3	601,1	622,2	636,1	675,2	92,9	115,9
Qashqadaryo	1345,4	1395,8	1438,3	1481,7	1568,9	223,5	116,6
Navoiy	501,6	509,8	527,3	532,1	537,1	35,5	107,0
Namangan	1207,0	1246,5	1288,2	1328,5	1432,8	225,8	118,7
Samarqand	1617,0	1672,2	1725,8	1782,1	1900,2	283,2	117,5
Sirdaryo	390,3	401,9	407,8	415,5	430,9	40,6	110,4
Surxondaryo	1057,7	1096,5	1133,5	1172,9	1246,5	188,8	117,8
Toshkent	1447,4	1477,9	1499,3	1518,2	1564,6	117,2	108,0
Farg'ona	1617,5	1667,2	1720,1	1769,3	1897,1	279,6	117,2
Xorazm	823,3	847,7	874,1	892,8	922,4	99,1	112,0
Toshkent sh.	1446,9	1461,5	1508,8	1533,6	1524,2	77,3	105,3
Respublika bo'yicha	15219,6	15644,9	16123,6	16504,2	17309,8	2090,2	113,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-ilova
2-jadval

O'zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi soni dinamikasi
(ming kishi hisobida)*

Hududlar	Y i l l a r					2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi	
	2007	2008	2009	2010	2011	+;-	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	551,1	561,1	566,1	580,8	590,0	38,9	107,0
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	1014,8	1047,3	1063,0	1112,1	1144,8	130,0	112,8
Buxoro	708,0	729,1	748,5	768,1	784,7	76,7	110,8
Jizzax	350,9	360,6	396,6	381,6	392,4	41,5	111,8
Qashqadaryo	877,9	908,7	934,9	971,7	1003,8	125,9	114,3
Navoiy	389,9	396,7	404,6	408,0	413,4	23,5	106,0
Namangan	738,0	763,3	790,1	815,3	841,7	103,7	114,0
Samarqand	1115,8	1152,0	1186,7	1229,9	1269,8	154,0	113,8
Sirdaryo	296,1	304,1	318,9	320,0	327,5	31,4	110,6
Surxondaryo	696,7	722,5	744,6	784,5	817,8	121,1	117,3
Toshkent	1068,6	1097,5	1127,0	1155,4	1183,5	114,9	110,7
Farg'ona	1241,3	1280,1	1318,0	1340,5	1367,6	126,3	110,2
Xorazm	553,6	571,1	583,0	606,7	625,2	72,6	112,9
Toshkent sh.	1132,4	1140,8	1145,8	1153,8	1156,7	24,3	102,1
Respublika bo'yicha	10735,4	11035,4	11328,1	11628,4	11919,1	1183,7	111,0

Маълумот: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

3-ilova
3-jadval

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarida, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar sonidynamikasi(ming kishi hisobida)

Hududlar	Iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi soni			Kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band aholi soni		
	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz	2007 y	2011 y	2011 yilda 2007 yilga nisbatan o'zgarishi, foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	145,9	160,1	109,7	104,1	109,7	105,3
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	176,4	207,5	117,6	197,3	209,7	106,2
Buxoro	161,5	165,6	102,5	140,8	144,0	102,2
Jizzax	68,2	80,6	118,1	84,7	100,8	119,0
Qashqadaryo	201,5	231,4	114,8	149,3	172,6	115,6
Navoiy	150,6	165,4	109,8	56,6	59,4	104,9
Namangan	160,5	171,8	107,0	148,9	142,6	95,7
Samarqand	228,1	228,7	100,2	218,9	250,7	114,5
Sirdaryo	58,6	68,7	117,2	72,6	93,9	129,3
Surxondaryo	140,3	162,8	116,0	175,4	193,6	110,3
Toshkent	256,4	274,4	107,0	191,1	206,4	108,0
Farg'ona	266,8	299,8	112,3	222,0	286,8	129,1
Xorazm	118,6	125,2	105,5	161,2	146,7	91,0
Toshkent sh.	418,0	437,6	104,6	171,1	221,5	129,4
Respublika bo'yicha	2551,7	2779,8	108,9	2094,3	2338,4	111,6

Маълумот: О'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

4-ilova
4-jadval

**O'zbekiston Respublikasi hududlarida yaratilgan ish o'rinlari soni
dynamikasi (birlik)***

Hududlar	Y i l l a r				2011 yilda 2008 yilga nisbatan o'zgarish	
	2008	2009	2010	2011	+, -	foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	28602	48064	48118	48362	19760	169,1
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	55670	77889	77902	78292	22622	140,6
Buxoro	54266	72904	72998	73363	19097	135,2
Jizzax	29566	43297	43317	43515	13949	147,1
Qashqadaryo	59191	85734	86444	86890	27699	146,8
Navoiy	30139	39870	40321	40596	10457	134,7
Namangan	49672	70762	71039	71778	22106	144,5
Samarqand	63570	91712	92020	92700	29130	145,8
Surxondaryo	44296	63686	63706	64644	20348	145,9
Sirdaryo	28660	37899	37920	38623	9963	134,7
Toshkent	52719	85333	85500	86000	33281	163,2
Farg'ona	63286	90050	91173	91246	27960	144,1
Xorazm	37110	59192	59182	59575	22465	160,5
Toshkent sh.	64159	74140	80361	80663	16504	125,7
Respublika bo'yicha	660906	940532	950001	956247	295341	144,6

Маъба: О'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.